جدید

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil
10-may
№ 20(20)

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz vatandoshlar, muhtaram faxriylar!

Bugungi shonli bayram – 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g‘alabaning 79 yilligi munosabati bilan mo‘tabar faxriylarimizni, ko‘p millatli butun xalqimizni samimiy muborakbod etib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Ushbu qutlug‘ kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko‘rsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, g‘alabani ta’minlashga munosib hissa qo‘shgan mard va olijanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltiramiz.

Jang maydonlaridan omon qaytib, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qilgan, bugungi kunda ezgu duolari bilan hayotimizning fayz-u farishtasi bo‘lib kelayotgan qadrli urush va mehnat faxriylariga cheksiz tashakkurimizni izhor etamiz.

Ayni vaqtda mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o‘z xizmat burchini ado etish yo‘lida halok bo‘lgan jasur harbiylarimiz xotirasini minnatdorlik bilan esga olamiz.

Qadrli do‘stlar!

Bugun barcha shahar va qishloqlarimizda o‘tkazilayotgan tadbirlarda bu mudhish urush el-yurtimiz uchun qanday mislsiz talafot va musibatlar olib kelganini yana bir bor yodga olishimiz tabiiydir. O‘sha og‘ir yillarda frontga safarbar etilgan **1 million 950 mingdan** ziyod o‘zbekistonlik jangchilardan **538 mingdan** ko‘prog‘i halok bo‘lgani, **158 mingdan** ortig‘i bedarak yo‘qolgani, **870 mingdan** oshig‘i turli jarohatlar olgani, **60 ming** nafardan ziyodi esa nogiron bo‘lib qaytgani bu g‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Ana shu qirg‘inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o‘tgan bo‘lsada, hamon unutib bo‘lmaydi.

Urush davrida **214 ming** askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangani, ularning **301 nafari** Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, **70 nafari** uchala darajadagi “Слава” (“Shuhrat”) ordeniga sazovor bo‘lgani biz uchun, hech shubhasiz, buyuk g‘alabaning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irodali xalqimiz o‘sha tahlikali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi. Sanoat korxonalarining faoliyati front ehtiyojlari uchun yo‘naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga **170 dan** ortiq zavod va fabrika ko‘chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

O‘zbekiston aholisi 1941-1943-yillarda mudofaa fondiga **475 million** rubldan ortiq mablag‘ni, **22 million** rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani g‘alabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

Xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan **1 million 500 mingga** yaqin insonga boshpana berdi. Ota-onasidan judo bo‘lgan **250 ming** nafar yetim bolalarga mehr-oqibat ko‘rsatib, so‘nggi burda nonini ham ular bilan baham ko‘rdi.

Aziz vatandoshlar!

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining timsoli sifatida bunyod qilingan muhtasham “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug‘ qadamjoga aylandi.

Shu kungacha bu yerga **2 million 200 ming** nafardan ziyod ziyoratchi tashrif buyurib, uni katta qiziqish va e’tibor bilan tomosha qilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Majmua jamoasi tomonidan **ellikka yaqin** kitob-albom va monografiyalar, noyob hujjatlar to‘plamlari yaratilib, hozirga qadar noma’lum bo‘lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi.

“Bobomni izlayman” loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan **2 million nafarga** yaqin vatandoshlarimiz ro‘yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan **300 dan** ziyod murojaatlar bo‘yicha urushda bedarak ketgan **200 nafar** jangchining taqdiriga oid muhim ma’lumotlar to‘plandi.

Muhtaram do‘stlar!

Bugungi bayram munosabati bilan jonajon O‘zbekistonimizda xotira marosimlari, turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, “uch avlod uchrashuvlari” o‘tkazilmoqda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining oila a’zolariga tabrik va sovg‘alar topshirishga bag‘ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o‘tkazilmoqda.

Muhtaram urush faxriylari xalqimizning doimiy e’tibori va e’zozida bo‘lib kelmoqdalar. Jumladan, yolg‘iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqlolimiz himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning uy-joylari ta’mirlanib, obod qilinmoqda. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga patronaj xizmati va zarur tibbiy muolajalar ko‘rsatilmoqda. Ular o‘z xohishlariga ko‘ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Hech shubhasiz, biz bugungi ozod va erkin hayot uchun aziz jonini ayamasdan kurashgan bunday ulug‘ insonlar oldida doimo qarzdormiz, ular uchun bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Hozirgi g‘oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni asrashdek o‘ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli an’analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lishdek yuksak burchimizni, albatta, sharaf bilan ado etamiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Siz, azizlarni bugungi ulug‘ ayyom bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YODI HAMISHA YODDA

XALQ TAQDIRINI ANGLASH



Esimda, 1981-yilning 17-18-mart kunlari sobiq Ittifoqning o‘nlab mashhur adiblari “Sharq mash’ali” deb nom olgan Toshkentga yig‘ilib, badiiy adabiyot targ‘iboti bo‘yicha ulkan anjuman o‘tkazishdi. Anjumanda Sarvar Azimov, Rimma Kazakova, Nazir Safarov, Lev Oshanin, Turob To‘la, Vladimir Karpov, Rahmat Fayziy va boshqalar so‘zga chiqdi. Mashvaratda eng qisqa va lo‘nda gapirganlardan biri atoqli qoraqalpoq adibi, ardoqli ustozimiz To‘lepbergen Qaipbergenov bo‘ldi.

Adib anjuman kun tartibiga “O‘z onasini sevmagan, unga loqayd bo‘lgan, uni ko‘z qorachig‘idek asray olmagan insonni inson, yozuvchini yozuvchi deb bo‘ladimi?!” degan keskin savolni qo‘ydi. O‘sha chog‘lari “Sharq yulduzi” jurnalida uning “Ko‘z qorachig‘i” romani bosilayotgan edi. Ko‘z qorachig‘i deganda adib ona sayyoramizni, ona O‘zbekistonimizni, ona Orolimizni nazarda tutgan edi. “Inson umrining ma’nosi, – deydi adib “Qoraqalpoqnoma” roman-essesida, – mudom o‘z-o‘ziga hisob berishi va o‘z-o‘zini tergab yurishidan iborat. Ana shundagina odam kechmish-kechirmishlariga teranroq nazar tashlaydi. O‘z taqdiriga chuqur nazar tashlash esa, xalq taqdirini teranroq anglash demakdir. Axir, har bir odam – xalq tarixini o‘zida muayyan darajada aks ettiruvchi ko‘zgudir!”

To‘lepbergen og‘a ko‘plab unvonlar, mukofotlar sohibi bo‘ldi. Atoqli ustozlarimizdan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Said Ahmad, Ozod Sharafiddinovdan keyin 2003-yili “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. U 1967-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston, 1971-yili Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofotlariga ham sazovor bo‘ldi. Ustozim “Men – o‘z xalqimning sodiq navkariman!” deyishni yaxshi ko‘rardi. Sakson bir yillik sermazmun umrining qaymog‘ini ana shu ulug‘ va jabrdiyda xalq xizmatiga baxsh etdi, butun hayoti davomida badiiy ijod bilan shug‘ullandi. Asrlar osha sahro mashaqqatlarini boshdan kechirgan, turli talon-u to‘fonlarga duch kelgan matonatli xalqning “Qoraqalpoq dostoni” nomli solnoma-trilogiyasini yaratdi. Trilogiya uchun sobiq Ittifoq davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Ustoz bilan zamondosh bo‘lgan adiblardan Chingiz Aytmatov “Alvido, Gulsari” qissasi, Zulfiya opa “Kamalak” she’riy turkumi, Nabi Hazriy “Dengiz cho‘qqilardan boshlanadi” she’riy to‘plami, Abdijamil Nurpeisov “Qon va ter” trilogiyasi, Fozil Iskandar “Chegemlik Sandro” romani uchun ana shu nufuzli siylovga musharraf bo‘lgan edilar.

(Davomi 5-sahifada).

ESSE

“ELNING BAXTI YONMASIN, TINCHLIK BO‘LAVERSIN!”

deya duo qiladi Bekchon buva

Daf’atan qulog‘imizga g‘alati tuyilgan bu duo buvaning xayoliga to‘satdan kelmagan – huv uzoqlarda qolgan, bundan roppa-rosa sakson ikki yil avval dunyoning u chekkasida kechayotgan, el-yurt kishilari tilida vahimalarga chulg‘angan urush – la’nati urush deganiga olib ketayotganlarida Devsolgan qal’aning hamon ko‘kka bo‘y cho‘zib turgan haybatli devorlari tagidan o‘tadigan qadim “Xon yo‘li”da eski yuk mashinasi kuzovida tengqurlari bilan bir-birlari pinjiga suqilishgancha o‘tirgan onlarida – ramaq lahzalarda shuurida uyg‘ongan va bir umr yodida muhrlangan umidbaxsh tilak bu!



O‘shanda ularni tuman markazidagi eski harbiy komissariat binosi oldiga to‘plashgan, ro‘yxat bo‘yicha nomma-nom sanab, so‘ng harbiy kiyimdagi oq sochli birovi “nemislar Moskva ostonasigacha kelishgani, ularni ortiga qaytarish, mamlakat sarhadlaridan haydab chiqarish, yurtda tinchlik o‘rnatish dolzarb masalaga aylangani, bu jabhada qo‘lga qurol olib, jasorat ko‘rsatish har bir yigitning burchi ekani” haqida gapirgan.

Uning qulog‘iga gap kirmagan, komissariat binosi tashqarisida to‘plangan odamlar orasidan onasini izlagan. Ko‘zlaridagi jiqqa yoshni ko‘ylagining yengiga artgancha karaxt bir holda turgan mushtipar onasini ko‘rganida kecha tuni bilan tinim bilmay yo‘lga hozirlaganlari – bo‘z xaltadagi yeguliklar bir botmon toshdek yelkasini o‘yib yuborgan...

* * *

Hazorasp – ko‘p qadim el. Necha ming yillik tarixida nene jang-jadallarni ko‘rmagan. Odamlar tilida Devsolgan (bunday bahaybat qal’ani odam bolasi tiklaganiga ishonish qiyin-da) va yana Sulaymon qal’a deb ataluvchi qadim qal’aning yoshini qadimshunoslar uch ming yildan ziyod deyishadi. Sakkiz yuz yil oldin Sulton Sanjar qo‘shini qal’ani qamalga olganida el yigitlari salkam yarim yil turib berishgan. O‘shanda Rashididdin Vatvot tilidan ko‘chgan, dushman tarafga o‘q-yoyda uchirilgan to‘rt satr she’r haqida odamlar hamon faxr bilan aytib yurishadi. To‘rt satrda shoir yurtni himoya qilayotgan jasur navkarlar ruhiyatini mohirlik bilan ko‘rsata olgan. She’r mazmuni taqriban shunday: “Sen qancha urinma, Hazoraspdan bir eshakni ham ololmaysan”. (Shoir “ming otliq” ma’nosini bildiruvchi “Hazorasp” atamasi misolida ajoyib so‘z o‘yini qilgan).

...19 yashar Bekchon safda turarkan, yana rahmatli otasi haqida o‘ylagan. Otasi Matnazar aka bobolari kasbi – duradgorlik bilan ro‘zg‘or tebratgan. Sovetlar yurtni o‘z ilkiga o‘tkazgach, avvalida shirkat, so‘ng kolxoz tuzganlarida tesha-tuzovini yig‘ishtirib, hamma qatori kolxozga chiqib ishlagan.

Matnazar akaning besh o‘g‘li bor edi: Samandar, Qalandar, Ahmad, Bekchon, Erkaboy. Ularning uchovi taqdiriga qurol tutish – yurtni himoya qilish yozilgan ekan.

(Davomi 3-sahifada).

G‘URUR

Biz bir avlod Vatan haqida otashin she’rlar yozdik, jo‘shqin qo‘shiqlar kuyladik. Ona yurtga muhabbatimizni shunday izhor etdik. Bugun esa Vatan ishqi bilan yashashning mutlaqo boshqacha, yangi bir davri boshlandi. Ertangi kunning egalari bo‘lgan yoshlarimiz biz madh etgan sadoqat va burch tushunchalarini amaliy tarzda namoyon etmoqdalar, go‘yo. Ular butunjahon taraqqiyoti rivojidan ortda qolmay, har jabhada yangiliklar yaratib, mamlakatimizning zamon bilan hamqadamligiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Jumladan, xalqimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’min etuvchi mudofaa tizimida ham.



YURTIMIZ QUDRATI TIMSOLI

Dunyo bo‘ylab kechayotgan global jarayonlar, ayrim o‘lkalarda lovullayotgan urush olovi xavfsizlikni ta’minlashda sobitqadam bo‘lishni, ogohlik va hushyorlikni oshirish barobarida jangovar shaylikni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

FESTIVAL

“O‘RAB OLAY GUL BILAN...”

Inson hamisha go‘zallikka talpinib yashaydi. Gulchechaklar esa azaldan muhabbat, poklik va go‘zallik ramzi sifatida ardoqlab kelinadi.

Sir emas, Namangan ahlining gullarga mehri cheksiz. Shu bois 1961-yildan Namangan shahrida “Gullar festivali”ni o‘tkazish an’anaga aylangan. Aslida, bunday gulchilik madaniyati o‘ziga xos tarixga ega.



(Davomi 3-sahifada).

9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI



O‘ZBEK AYOLLARINING MATONATI UNUTILMAYDI

Ikkinchi jahon urushining dahshati va fojialari haqida ko‘p gapirish mumkin. Bu urushda o‘zbek xalqining ham qanchadan-qancha o‘g‘lonlari qurbon bo‘ldi. Urush qoldirgan jarohatlar necha yillar o‘tsa ham insoniyat xotirasidan o‘chmaydi. Buni unutishga avlodlarning haqqi yo‘q.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Nurafshon business city” hududidagi 1,2 gektar maydonda Zulfiya Zokirova nomidagi memorial yodgorlik majmuasi barpo etildi.

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog‘ida yashagan Zulfiya Zokirova Ikkinchi jahon urushida besh o‘g‘lidan – Isoqjon, Ahmadjon, Mamajon, Vahobjon, Yusufjondan judo bo‘lgan. Urush tufayli, kelinlar beva, nabiralar yetim qolgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Zulfiya Zokirovaning matonatli hayot yo‘li haqida badiiy film yaratildi. Bugun O‘zbekistonda Zulfiya Zokirovani bilmaydigan, u haqdagi filmni ko‘rmagan odam yo‘q.

Zulfiya Zokirova oilasi misolida Ikkinchi jahon urushi o‘zbek xalqiga qanchalik musibat keltirganini tasavvur etish mumkin.

Majmua hududiga 15 turdagi mingdan ziyod gullar ekildi. Shuningdek, xorijdan keltirilgan 6 xil turdagi 500 dan ziyod manzarali nihol hamda 5 mingdan ortiq buta, 100 ga yaqin noyob turdagi archa ko‘chatlari o‘tqazildi. Hududning 7 ming kvadrat metr maydoniga chim yotqizilib, majmuaning yon tomoniga Toshkent kanalidan alohida 1,9 kilometr tabiiy suv irmog‘i tortib kelindi. Ekilgan nihol va gullarni tejab sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Memorial majmuaning qurilishi va atrofini obodonlashtirish uchun 4,8 milliard so‘m miqdorida mablag‘ sarflandi.

Mazkur majmua eng so‘lim va sokin joy bo‘lishi bilan birga, tarixda sodir bo‘lgan mudhish urushdan saboq chiqarib, bugungi tinchlik, osuda hayotga shukrona keltirish, uning qadriga yetish, shu bilan birga o‘tganlarga ehtirom va hurmat ko‘rsatishga undovchi maskan bo‘lib xizmat qiladi.

Bu yodgorlik majmuyini ziyorat qilgan, yaratilgan bog‘ni aylangan insonlarda urushlarga nafrat tuyg‘usi uyg‘onishi bilan birga buyuk momolarimiz, ularning mard o‘g‘lonlari jasorati, matonatidan g‘ururlanish hissi ham paydo bo‘ladi.

A.MUSAYEV,
O‘zA.



YURTIMIZ QUDRATI TIMSOLI

Boshlanishi 1-sahifada.

Shu bois ham milliy armiyamizni eng zamonaviy qurol-aslahalar hamda harbiy texnika bilan ta’minlash va mudofaa sanoatini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilyapti.

Joriy yilning 2-yanvar kuni mudofaa qurilishi va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan ushbu soha faoliyatini yanada takomillashtirish va mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini yuksaltirish bo‘yicha qator topshiriqlar berilgan edi. Shunga asosan 2-4-may kunlari poytaxtimizdagi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasida mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali hamda “Texnofest–2024” mudofaa sanoati amaliy ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur festivalda yigirmaga yaqin yirik ishlab chiqarish korxonalari, 50 ta tashkilot vakillari hamda 30 dan ortiq ixtirochilar metallurgiya, kimyo sanoati, to‘qimachilik sohasiga oid mahsulotlari va modellari bilan ishtirok etdi. Shuningdek, robototexnika, kibersport, dronreysing, 3D modellashtirish, dronlarni loyihalashtirish va dasturlash kabi yo‘nalishlar bo‘yicha ham ko‘plab loyihalar namoyish qilishdi.





– Bugungi kunda hurmatli Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning talabi va e’tibori tufayli armiya tizimida juda katta o‘zgarishlar yuz beryapti, – dedi iste’fodagi general-polkovnik Rustam Ahmedov. – Men ayniqsa, armiyamiz uchun zarur bo‘lgan bir qator zamonaviy qurol-aslahalar o‘zimizda ishlab chiqarilayotganini ko‘rib juda xursand bo‘ldim. Ko‘rgazmada har xil turdagi avtomatlar, robot-askarlar, 30 kilometr balandlikkacha ko‘tarila oladigan uchuvchisiz uchish qurilmalari namoyish etildi. Shubhasiz, har bir davlatning muhofaza quvvati armiyasining kuch-qudrati bilan o‘lchanadi. Shu ma’noda, mudofaa sohasiga e’tiborni doimiy ravishda kuchaytirib borish zamon talabidir.

Mudofaa vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa bir qancha tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan ko‘rgazma va festivalda milliy armiyamizning mudofaa salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan istiqbolli yo‘nalishlar bo‘yicha ishlanmalar, yangi loyihalar keng namoyish qilindi. Uch kun davom etgan tadbirlarda aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘quv-texnik vositalar, dasturiy ta’minot, aviatsiya modellari, dronlar, robototexnika qurilmalari, trenajyor komplekslari, himoya vositalari, kimyo texnologiyalari va boshqa bir qancha harbiy texnologik mahsulotlar harbiylar e’tiboriga havola etildi.

Mudofaa vazirligi Faxriylar ishlari bo‘yicha markaziy kengash raisi, iste’fodagi polkovnik Abubakr Navro‘zov shunday deydi:

– Bunday loyihalar mudofaa sohasiga yangi texnologiyalarni joriy qilishga qodir bo‘lgan iqtidorli yoshlarni kashf etish hamda turli tashkilotlar va yirik ishlab chiqarish korxonalarini mudofaa sanoatiga keng jalb etishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, ayni paytda mamlakatda iqtisodiyotning to‘laqonli mudofaa sektorini shakllantirishning ahamiyati katta. Zero, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizga faqatgina tinchlik-osoyishtalik orqali erishishimiz mumkin. Vatan himoyasini jismoniy tayyorgarliklar bilan bir qatorda, ilm-fan yutuqlari orqali ham mustahkamlash zarurligini anglash qiyin emas. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Qurolli Kuchlar tizimini har tomonlama modernizatsiya qilish orqali Yangi O‘zbekistonning suvereniteti, xalqimizning xavfsizligi va osoyishtaligini kafolatli ta’minlashga qodir bo‘lgan zamonaviy armiyaga aylantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar o‘zining amaliy natijalarini bermoqda. Yurtimizda favqulodda vaziyatlarda qo‘llanuvchi ko‘p funksiyali robotlar, tog‘li hududlarga oid ma’lumotlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan mobil dronlar, yarador askarlar va boshqa yuklarni tashishga mo‘ljallangan elektromobillar, turli maqsadlarga xizmat qiladigan uchuvchisiz uchish qurilmalarining ishlab chiqarilayotgani, yangi-yangi harbiy loyihalarning taqdim etilayotgani bu boradagi ishlar ko‘lamining kengayayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Yoshlar akademiyasi vakillari ham aynan shu sohaga yo‘naltirilgan ilmiy-texnikaviy ishlanmalarga jiddiy e’tibor qaratishmoqda.

– Ko‘rgazmada Yoshlar akademiyasi tomonidan 13 ta, umumiy tizim bo‘yicha esa 30 dan oshiq loyihalar namoyish etildi, – deydi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari Otabek Mahkamov. – O‘tgan yili ushbu sohaga to‘rtta grant ajratilib, 1 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Ayni paytda ham bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda. Albatta, bu kabi tadbirlar navqiron olimlarimizda Vatanimizning mudofaa qudratini mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shish istagini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois biz Mudofaa vazirligi bilan ushbu yo‘nalishda muntazam hamkorlik qilishga kelishib oldik.

Harbiy sanoat sohasini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yaroq va texnika vositalari bilan ta’minlashga, balki yaqin istiqbolda minglab qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga ham ko‘mak beradi.

“Texnofest–2024” mudofaa sanoati amaliy ko‘rgazmasi yakunida malakali ekspertlar tomonidan yosh mualliflarning ishlanmalari orasidan eng yaxshilari aniqlanib, munosib rag‘batlantirildi. Shuningdek, ularning kelgusida mudofaa sanoatiga qarashli korxona va zavodlarda ishga joylashishiga ko‘maklashish choralari belgilandi.

Albatta, yurtimiz yildan-yilga obod bo‘lib, hayotimiz kun sayin farovonlashib borayotgani quvonarli hol. Ammo dunyoda chegara bilmas xavf-xatarlar bor ekan, xotirjamlikka berilishga aslo haqqimiz yo‘q. Dunyoda yuz berayotgan turli voqea-hodisalar, tahdidlarni birgina o‘sha davlat yoki mintaqa hayotiga daxldor deb bo‘lmaydi. Mana shunday sharoitda Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrash, tinchlik va barqarorlikni himoya qilish har birimizning oliy burchimizga aylanmog‘i shart. Zero, xavfsizligimizning kafolati mudofaa qudratiga bog‘liq.

Muhayyo PIRNAFASOVA

QADRIYAT

URCHUQ YIGIRIB, BAXT TO‘QIDIM

105 yoshida dunyodan o‘tgan ammamizning tutdan yasalgan urchug‘i bo‘lardi. U ip yigirganida ko‘z oldimizda kurrai zamin aylanayotganday bo‘lib, urchuqning chirillagan ovozidan zavqimiz oshardi. Ammam urchug‘ini asrab-avaylab, yosh bolalarga hech ushlatmasdi. Biz opa-singillar uning ko‘zini shamg‘alat qilib, o‘zimizcha urchuq yigirishga urinardik, – deydi Sayxunobod tumani, “Paymard” mahallasida istiqomat qiluvchi taniqli hunarmand Asiba Botirova. – Onamning boshqirdistonlik kursdoshi bo‘lardi. U bizga qutida tivit junini jo‘natardi. Onam ana shu tivitdan ro‘mol, paypoq to‘qib berardi. Mahallamiz ayollarining hammasi ham urchuq yigirishni yaxshi bilar, bilmaganlari no‘noq hisoblanardi. Onam va ammamdan ko‘rib men ham bu hunarga qiziqdim.

O‘rta maktabni tugatib, o‘qishga kira olmadim. Otam sopoldan urchuqboshi yasab berdilar. Qishi bilan shu urchuqda ikkita gilam uchun ip yigirib qo‘yibman. Birinchi to‘qigan gilamchamni akamga sovg‘a qilganman.

Urchuqda yigirilgan ipning mustahkamligi yigiruvchining mahoratiga bog‘liq. Iplar ingichka yigirilib, ikki qavat o‘ralib, pishitib to‘qilsa, mahsulot yengil, nafis va bir tekis bo‘lib chiqadi.

Bugun zamonaviy asbob-uskunalarda yigirilgan ipda to‘qilayotgan gilamlarning turi ko‘p. Biroq urchuq ipdan to‘qilgan mahsulotlar o‘zining mustahkamligi va rangi uzoq vaqt o‘chmasligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy mexanik urchuqlar XVIII asrda sanoat rivojlanishi natijasida paydo bo‘lib, gilamchilik sohasining keskin rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, bu shiddatli jarayonlar qo‘l urchuqlarining ahamiyatiga putur yetkazgani yo‘q. Paxtadan to‘qilgan tabiiy julpatlarning naqshlariga qarab kishining zavqi oshadi. Men ham to‘qigan buyumlarimda milliylik, an’anaviylik va zamonaviylikni aks ettirishga harakat qilaman. Har bir ishimga o‘ziga xos ijodiy yondashib, tabiat go‘zalligini to‘qigan buyumlarimda aks ettirishga urinaman.

O‘zim uchun qadrli bo‘lgan oq toshdan yasalgan urchuqboshi otamning onasidan meros qolgan. Buvim uni onamga qoldirgan. Ana shu oilaviy merosni avaylab saqlayman.

Yangi oila qurgan kezlarimda turmush o‘rtog‘im Andijonda talaba edilar. Undan so‘ng harbiy xizmatga ketdilar. Yolg‘iz qolgan kunlarim urchuq yigirish bilan o‘zimni ovutardim. To‘qigan narsalarimni singillarimga, qayinsingillarga sovg‘a qilardim. Haligacha har bir ishimni o‘sha paytlardagiday zavq-shavq bilan bajaraman. Ayniqsa, qariyb 40 yil o‘qituvchilikdan nafaqaga chiqib, 2015-yili “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgach, ip yigirish va to‘qishga yanada jiddiyroq kirishdim.


Hozir ham yurtimizda bo‘ladigan turli festivallar, ko‘rgazmalarda o‘zim tikkan quroqlar, gilam va sholchalar bilan ishtirok etaman. Bekor o‘tirguncha bekor ishla, deb bejiz aytishmagan. Shu kasbning ortidan el-ulus orasida hurmat qozondim, ko‘plab shogirdlar ham tayyorladim.

Ishqilib, hayotim davomida nimagaki erishgan bo‘lsam, urchuq yigirish ortidan deb bilaman. Shu hunar bilan el kezib, dunyo ko‘rdim. Toshkentda bo‘lib o‘tgan xalqaro ko‘rgazmada Buyuk Britaniyaning Kembrij shahridan kelgan tadbirkor Muhammad Abdulaziz al-Marg‘ub ishlarim bilan tanishgach, men to‘qigan poyondoz, sholcha va gilamlarni sotib olish uchun shartnoma tuzgan edi. Endilikda to‘qigan gilamlarim Yevropada ham sotilmoqda.

Bu hunar momolarimizdan meros. Har bir ish nihoyasiga yetganda uning zavqini hech narsa bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Yozuvchi-shoirlar yaxshi asar yaratganida qanchalik xursand bo‘lsa, zavqqa to‘lsa, men ham ulardan kam quvonmayman. Yana urchuq yigirib, bundan-da go‘zal va bejirim buyumlar to‘qishga harakat qilaman.

Hozir yurtimizda moddiy va nomoddiy qadriyatlarimizni asrab-avaylashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu ishlarga hamohang tarzda har birimiz milliy hunarmandchilik sohasida munosib shogirdlar yetishtirsak, boqiy an’analarimiz, moddiy va ma’naviy merosimizni kelajak avlodlarga bus-butun yetkazishga hissa qo‘shgan bo‘lamiz. Mana shu yo‘lda mening ham ozmi-ko‘pmi hissam borligidan doim faxrlanib yuraman.

Bahrom BOYMURODOV
oqqa ko‘chirdi.



“ELNING BAXTI YONMASIN, TINCHLIK BO‘LAVERSIN!”

deya duo qiladi Bekchon buva



Boshlanishi 1-sahifada.

Samandar urushdan omon-eson qaytib keldi. Erkaboy urushdan so‘ng harbiyga olindi va taqdir ekan – tinch zamonda omonatini harbiyda topshirdi.

Bekchon aka esa...

* * *

Urushga otlangan uch yuzdan ko‘proq yigitlarni Amudaryo orqali kemalarda Chorjo‘yga yetkazishdi. U yog‘iga poyezdda to‘qqiz kun yo‘l bosib, vaqtinchalik harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazadigan qismga – Moskva yaqinidagi poligonga olib borishdi. Harbiy tayyorgarlik uzoqqa cho‘zilmadi – o‘rmonda biror hafta miltiqdan o‘q otish, granata uloqtirishni o‘rgatishdi-yu, janglar avjiga chiqqan front chizig‘iga jo‘natishdi.

Bekchon va yana qirq chog‘li yigitlarni Leningrad fronti tarkibiga yuborishdi. U vaqtda hali shahar to‘la qamalga olinmagan, bostirib kelayotgan dushmanni ortga uloqtirib tashlash umidi bor edi.

Keyin shahar to‘la qamal holatiga tushadi. Shiddatli bo‘lmasa-da, har kun, har soatda front chizig‘i bo‘ylab qisqa janglar bo‘lib turadi. Eng yomoni, qamaldagi shaharda oziq-ovqat taqchilligi ro‘y beradi. “Katta yer”dan oziq-ovqat tashib keltirish to‘xtab qolganidan askarlarning kunlik oziq-ovqat me’yori ham oy sayin qisqartirib boriladi. Bu yoqda tinch aholi ochlikdan qirila boshlaydi...

Nemislarning shaharni bosib olmasdan, ochlik yordamida taslim qilish maqsadi ayon bo‘lgach, qo‘mondonlik askarlarning bir qismini qishda Ladoga ko‘li orqali olib chiqib, vaziyat og‘ir bo‘lgan boshqa frontlarga tashlaydi.

* * *

Bekchon buva 2-Ukraina fronti tarkibida ikki yilga yaqin qaqshatqich janglarda ishtirok etib, 1944-yilning oktyabr oyida og‘ir yaralanadi. Ikki oydan ziyod harbiy gospitalda davolangach, uni “harbiyga yaroqsiz” deb topib, zaxiraga bo‘shatishadi.

“1944-yilning 15-dekabri kuni uyga keldim, – deb gurung beradi keksa jangchi. – Karvak qishlog‘idan urushga ketgan men tengi va yoshi katta yigitlarning o‘n beshi halok bo‘lgani haqida “qora xat” kelgan ekan. Keyin yana qancha shumxabar keldi...

Qishloqlarda ham ahvol yaxshi emasdi. Bor oziq-ovqat frontga olib ketilganidan yurtda ocharchilik ro‘y bergan, ko‘p odamlar paxtaga o‘g‘it o‘rnida ishlatiladigan kunjarani ilojsizlikdan yeb, jigarlari ado bo‘lib, bevaqt vafot etishgan. Ustiga ustak, ikki yil ketma-ket tarqagan vabo ham ko‘plarning yostig‘ini quritgan. Kolxozning og‘ir ishi qariyalar, xotin-qizlar, hali suyagi qotmagan o‘smirlarga qolgan ekan. Onam-u yaqinlarim diydoriga to‘ymasdan kolxoz ishiga chiqib ketdim. Meni chorvachilik fermasiga ishga yuborishdi. Tezroq urush tugasin, yurtda tinchlik bo‘lsin, deb kecha-yu kunduz ishladik. Urush vaqti kolxozchilarga ish haqiga “ish kuni”ga qarab bug‘doy berishardi. Onam, ukalarim va men ochdan o‘lmasligimizga yetarli bug‘doy olsak, do‘ppimizni osmonga otardik.

Ey, urushning nomi o‘chsin! Ne azoblarni ko‘rmadik. Qishlog‘imizdan urushga ketgan yigitlarning yarmisiyam tirik qaytmadi. Aksariyati nogiron bo‘lib qaytishdi...”

Bekchon buva nafaqaga chiqqunicha chorvachilik fermasida ishladi.

* * *

Hozir 103 yoshni qarshilayotgan Bekchon buvaning xotirasi yaxshi, ammo quloqlari chala eshitadi. Suhbatimizda nevaralari Shohistaxon “tilmoch”lik qildi.

“Buva, so‘rashyapti, Ro‘zi enam bilan qachon to‘ylaringiz bo‘lgan?”

“To‘y? Qanaqa to‘y? Ro‘zi enangga uylangan vaqtim – urush endi tugagan davrlarda to‘y bormidi? Odamlarda qorin qayg‘usi. Hozirgidek kelinga bo‘xcha-bo‘xcha kiyim bormi, “qalin” degani qayda? O‘n kilocha guruch damlab, yaqinlarni chaqirib, enangni tushirib olganman. Hozir odamlar to‘kinlikdan ming odamni chorlab, katta-katta to‘ylar qilishyapti. To‘yxona deganlari chiqdi. Turli yeyimliklarni stollar zo‘rg‘a ko‘taradi. Shu kunlarga yetkazganiga shukr! Lekin uvolniyam unutmaslik kerak...”

* * *

Bekchon buva Ro‘zi momo bilan butun umr kolxozda ishlab, katta ro‘zg‘orni tebratishdi. Farzandlari ketma-ket tug‘ildi: Qodir, To‘ti, Riyimbergan, Ra’no, Salima, Gulbahor, Gulchehra, Xudoyberdi... Katta farzandlari allaqachon qarilik gashtini surishmoqda. Barchalari ajdodlaridan meros shu qishloqda muqim yashashyapti.

Terapevt shifokor o‘g‘li Riyimbergan har kuni otasi holidan xabar oladi – yuz bilan yuzlashgan qariya doimiy nazorat va tibbiy yordamga muhtojlik sezadi.

Bekchon buvadan nevara, chevara va evaralari haqida so‘raymiz. Buva lahza o‘ylanmasdan yod bo‘lib ketgan raqamlarni takrorlaydilar:

“Xudoga shukr, hamma farzandlarim hayot. 36 nafar nabiram, 120 chevaram va 16 nafar evaram bor. Evaralarim soni yil sayin oshyapti. Shularning to‘ylarini ko‘ray, deb niyat qilaman”.

* * *

Buva gap orasida qiziq bir taqqoslashni keltirdilar:

“Bugun ham sovetlarni maqtaydigan bor. Ammo o‘sha zamonda Xorazmda oddiy paqir yoki mix ham tayyorlanmas edi. Buni qarang, hozir Xorazmda yengil mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Mashina chiqadigan Pitnak shahri bizlarga besh qadam. Shu kunlarni ham ko‘rdik-a! Bizlar urushga ketgan davrda Hazoraspda ikki qavatli bino degani yo‘q edi. Hozir qishloqlarda besh va yetti qavatli turar joylar tiklanyapti. Qishloqlar shaharlardan qolishmaydi. Har qadamda to‘yxona – kunora to‘y! Elning baxti yonmasin, yurt boshida turgan insonlar omon bo‘lsinlar!”

* * *

Yana bir ta’sirli holat. Bekchon buva gurungimiz davomida Xorazmda necha nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi qolgani haqida so‘radi. Yaxshiyam, kuni kecha viloyat hokimligi matbuot xizmati rahbari Odilbek Odamboyevdan shu haqida ma’lumot olganim, aks holda yer chizib qolar ekanman.

“Besh nafar qolibsizlar, buva! Gurlandan Bobojon Madaminov, Qo‘shko‘pirdan Vafo Iskandarov, Urganch shahridan Sobir Qurbonov, Yangibozordan Amin Matniyozov va siz”.

Buva chuqur xo‘rsinadi: “Mingdan birimiz qolibmiz-da! U yoqlarda – begona tuproqlarda qolganlar qancha edi? O‘zim tengi, birga o‘ynab-o‘sgan yigitlardan yetti nafari urushdan qaytmadi...”

So‘ng yana so‘raydi: “Qolganlarning eng yoshi kattasi kim ekan?”

“Gurlanlik Bobojon buva 105 yoshda ekanlar. Qolganlari 101-99 yoshlarda, sizdan kichikroqlar”.

“Urush bo‘lmasin-da, bolam. Bu “Afg‘on urushi” degani ham qancha yigitlarning umriga zavol bo‘ldi. Hozir ham televizorda ko‘zim tushadi – men sakson yillar oldin qon kechgan Ukrainada yana urush bo‘layotgan ekan. E, attang!.. Ne-ne g‘o‘r yigitlar behuda o‘lib ketadi. Bizning avlod azob-u uqubatlarni ko‘rdik, shuning o‘zi yetmasmidi! Shu kecha-yu kunduz yolg‘iz tilagim: xalqimizning baxtiga urush bo‘lmasin! Bizlar ko‘rdik, endi avlodlarim ko‘rmasin! Tinchlikning qadriga yetib yashaylik!”

* * *

Urush degan baloyi ofat o‘chog‘ini o‘chirish uchun qon kechgan, qolgan butun umrini tinch mehnatda kechirib, bir etak farzandlari kelajagini yaratgan Bekchon buva huzuridan qaytar ekanman, yo‘lim o‘sha qadimiy Devsolgan qal’a poyidan tushadi. Uch ming yillik tarixga ega vohadagi eng “keksa” qal’a xarobalari bugun go‘yo qaytadan yasharmoqda. Prezidentimizning yurtimiz sayyohlik salohiyatini oshirish borasidagi tarixiy farmonidan so‘ng Xiva shahri qatorida Hazorasp ham xalqaro sayyohlik yo‘nalishiga kiritildi. Bugun ko‘hna qal’ani qayta ta’mirlash, bu yerda hunarmandlik rastalari, rassomlik ustaxonalari, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish shoxobchalari bunyod qilingan. Deyarli har kuni dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurgan sayyohlar qadim qal’ani hayrat bilan tomosha qilishadi. Ajdodlarimiz yaratgan me’moriy obidalar ta’rifi bahri muhitlar oshgan. Xalqaro sayyohlar oqimi ko‘payishini inobatga olib, vohaga tezyurar elektr poyezd yo‘li tortilmoqda.

Ushbu temir yo‘l tarmog‘i qadim Devsolgan qal’a yaqinidan o‘tgan.

Sakson ikki yil oldin urushga ketayotib Bekchon buva ajdodlari tiklagan qadim qal’a devorlariga boqib, yurtga sog‘-omon qaytishni, bobolari kabi asrlarga tatiydigan inshootlar barpo etishni orzu qilgan edi. Qo‘li gul inson bu orzusini mustaqillik yillarida farzandlari ochgan bog‘dorchilik fermer xo‘jaligida amalga oshirdilar. Buva o‘z qo‘llari bilan ekkan turli mevali daraxtlar, ayniqsa ta’rifi yurt oshgan “Karvak olmasi” allaqachon mo‘l hosilga kirib, bozorlarimiz to‘kin bo‘lishiga hissa qo‘shayotir.

“Yaxshidan bog‘ qoladi” deyilmish otaso‘zimiz yana bir qayta o‘z isbotini topayotir.

* * *

9-may – Xotira va qadrlash kuni arafasida Xorazm viloyati hokimi Jo‘rabek Rahimov Bekchon buvani ham ziyorat qilib, Prezidentimiz sovg‘asi – 20 million so‘m pul mukofoti, shuningdek, viloyat va tuman hokimliklarining tuhfalarini topshirdi. Bekchon buva nabirasi tengi rahbarga hurmat yuzasidan: “Hokim buva” deb murojaat qilarkan, yurt tinchligi, obodligi yo‘lida kecha-yu kunduz orom bilmay ishlayotgan Yurtboshimiz va boshqa rahbarlarga uzoq umr, mustahkam sog‘liq tilab, duo qildilar-da, mashhur tilagini takrorladi:

– Tinchligimiz qadim qal’alarimizdek barhayot va mustahkam bo‘lsin!

Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

TILBILIM

“-LAR” QO‘SHIMCHASI HAQIDA

“-lar” qo‘shimchasi to‘g‘risidagi fikrni quvvatlaganlardan minnatdorman. Shu munosabat bilan quyidagilarni qayd etish maqsadga muvofiq. “-lar” ikki funksiya bajaradi.

Birinchi funksiya – ko‘plikni ifodalash. Albatta, “viloyatlardan xush-xabarlar”, “odamlarning naqshidir“ (Navoiy), “kitoblarni taxlab qo‘y” deymiz. Agar sanaluvchi oldida -ta, nafar va boshqa mohiyatan ko‘plikni bildiruvchi vosita kelsa, “-lar” qo‘shilmaydi, chunki “seryog‘ dumba” kabi ortiqchalik yuzaga keladi. Misol uchun, “yuz kishi” deyish to‘g‘ri, ammo “yuz kishilar” deyish noto‘g‘ri. Qiyoslang: “ikki kishi” – “ikki kishilar” yoki “bir juft kishilar”. “Beshta kitoblar” deyish sheva emas (sheva qadimiy bo‘ladi), yaqinda rus va ingliz tillaridan ko‘chirma qilish natijasida paydo bo‘lgan, xolos: 5 men, 2 books, 10 книг, 20 штук яиц. Bu an’ana davom etguday bo‘lsa, “men shimlar kiydim”, “ko‘zoynaklarimni taqdim” deyish boshlanib qolishi hech gap emas.

Ikkinchi funksiya: hurmatni ifodalash. Misol uchun, “Otam uydalar, choy ichyaptilar” – bu joiz, ammo “Otamlar uydalar” – shaklan ham, ma’nan ham xato, “choylar ichyaptilar” deyish esa kulgili. Hurmat ma’nosida “-lar” gapning egasi hurmatga loyiq shaxs (ya’ni inson) bo‘lganda gapning kesimigagina qo‘yilsa joiz: “Ustoz kitobidagi maqolani o‘qishni tavsiya qildilar”. Xuddi shu fikrni “ustoz kitoblaridagi maqolalarni o‘qishni tavsiya qildilar” deyish noto‘g‘ri, chunki tinglovchi bir necha kitobning har biridan bir nechtadan maqolani tavsiya qilgan ekan, deb tushunadi. Ayni paytda “-lar”ni qo‘shsa hurmat bo‘ladi, aks holda hurmatsizlik bo‘ladi, deyish ham mutlaqo noto‘g‘ri. Ayniqsa rasmiy nutqda (jumladan, “oynayi jahon”da gapirganda) “-lar” qo‘shimchasini qo‘llayverish durust emas, uni suiiste’mol qilish esa hurmat emas, aksincha, tilyog‘lamalikni bildiradi.

Shevada “-lar” hurmatni emas, aksincha, hurmatsizlikni bildirishi mumkinligini ham unutmaslik kerak: “Yozlaring!” – shevaga xos, keng tarqalgan, ko‘pchilikni mensimaslik ifodasi. Hali-hozir o‘zbek adabiy tili grammatikasiga kiritilmadi. “Kiritmoqchimisanlar? O‘l(ma)laring!”. To‘g‘ri shakl: “Yozing!” “Yozinglar!” desa adabiy tilga muvofiq bo‘ladi. O‘smir o‘zining o‘rtoqlariga tanaffusda “Yozmaysanlarmi?” deyishi joiz, ammo sinfda bunday deyishi odobsizlik. O‘qituvchi tomonidan aytilsa xato, chunki o‘qituvchi ziyoli, o‘quvchilariga namuna bo‘lishi kerak. (Vallohu a’lam bis-savob.)

Abdulla A’ZAM

Boshlanishi 1-sahifada.

Ilgari shahardagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog‘i o‘rnidagi Gulzor mahallasida yashagan odamlar o‘zlarining hovli va bog‘larida anvoyi gullar o‘stirishgan. Ana shu chamanzorlarning dovrug‘i Qo‘qon xoni Xudoyorxonning ham qulog‘iga yetib borgan. Natijada u mahalla ahlini boshqa joyga ko‘chirib, ushbu hududni o‘ziga qarorgoh qilgan.

Namangan gulchiligi rivojiga mahalliy aholi orasida To‘qmulla ismi bilan tanilgan tatar millatiga mansub Tuxmullin va uning avlodlari ham munosib hissa qo‘shgan.

Qozon shahrida tug‘ilib o‘sgan bu inson chor Rossiyasining musulmon tatarlariga tazyiqi kuchaygach, 1830-yilda yurtimizga ko‘chib kelgan. U oltmish sotix yer sotib olib, bog‘-rog‘ barpo qilgan.

Tuxmullinning yolg‘iz farzandi Izzatulla diniy va dunyoviy ilmlar bilimdoni bo‘lib, shahardagi masjid-maktabda bolalarga saboq berish bilan birga, gulchilik bilan ham shug‘ullanardi. Izzatulla qori 1870-1910-yillar mobaynida o‘z hovlisida dunyoning turli chekkalarida o‘sadigan 200 dan ortiq gul va o‘simlik navlarini parvarishlab, mahalliy iqlimga moslashtiradi. Qizig‘i, u gul urug‘larini tayyorlash va o‘zga yurtlarga eksport qilish mavzusiga bag‘ishlangan mo‘jazgina lug‘at-risola ham chop ettirgan. Ushbu asarda turli gul navlarining shifobaxsh xususiyatlari va parvarishlash usullari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

O‘tgan asrning oltmishinchi yillarida Namangan shahridagi Bobur





“O‘RAB OLAY GUL BILAN...”

Mirzo nomidagi istirohat bog‘iga rahbarlik qilgan Hoshimjon Nurmatov ham shinavanda inson sifatida nom qozongan. U kishi har yili yoz faslida Rossiyaning Yessentuki shahriga dam olish uchun borganida ushbu kurort-shaharda san’at darajasiga ko‘targan gulchilik madaniyatini yaqindan o‘rganardi. Ayniqsa, u kishi mahalliy aholining tuvaklarda o‘stirilgan gullarni ko‘cha eshigi oldida qatorlashtirib terib qo‘yishi va bu hol sayyohlar e’tiborini tortishiga ahamiyat qaratadi. Xullas, Hoshimjon aka bu kabi gulchilik tajribalarini Namanganda ham sinab ko‘rishga qaror qiladi. E’tiborli tomoni, uning tashabbusi namanganliklar orasida shitob bilan ommalashib ketadi. Qisqa vaqt ichida shahardagi asosiy gulzorning maydoni qariyb 15-gektarga yetadi. Ushbu maydonda 800 xildan ortiq gul o‘stirilib, uning hududida issiqxona ham tashkil etiladi.

1961-yil 19-20-avgust kunlari Namangan shahrida ilk marta gul bayrami o‘tkazildi. Tadbir doirasida tashkil qilingan 17 ta gullar ko‘rgazmasida 6 ta tashkilot va 16 nafar havaskor gulchi ishtirok etadi. Bu tashabbus gulsevarlar orasida keng quloch yoydi. “Namangan haqiqati” gazetasining 1962-yil 13-may sonida Eshondada Alixonov, Solixon Nosirov, Yo‘ldosh Rahimov, Abdusamad Abdullayev, Yo‘ldosh Obidxonov, Abdurahim G‘afforov, Aleksandra Maslennikova, Ramazon Murodrasulov kabi atoqli gulchilar imzosi bilan “Namangan gul shahri bo‘lsin!” sarlavhali chaqiriq mazmunidagi maqola e’lon qilinadi. Ushbu maqolada “Qayerga bir tup gul o‘tqazish mumkin bo‘lsa, o‘sha yerni gulsiz qo‘ymaylik!” degan shior o‘rtaga tashlanadi.

Yillar davomida Namangan shahrida yakka tartibda gulchilik bilan shug‘ullanadigan kishilar safi ko‘paya boshladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, shaharda gulchilikka e’tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda gul bayramining mazmuni va ahamiyati yanada kengaydi. Xususan, 2017-yili ushbu tadbir xalqaro miqyosda o‘tkazilib, unda Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Janubiy Koreya, Ozarbayjon va Qirg‘izistondan kelgan mehmonlar hamda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kompaniyalar vakillari ishtirok etishdi. 2018-yilgi mavsumda esa namanganlik gulchilar misli ko‘rilmagan gullar paradini uyushtirishdi. Shu tariqa ushbu tadbir “Xalqaro gul bayrami” maqomiga sazovor bo‘ldi. Har yili Namangandagi go‘zallik va nafosat bayramida qatnashish va uni yoritish uchun dunyoning turli davlatlaridan mehmonlar hamda jurnalistlar tashrif buyurmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ayni paytda Namangan shahridagi gullar festivali tom ma’noda tinchlik, farovonlik va xalqlar o‘rtasidagi birdamlik bayramiga aylangan.

Muqaddam USMONOVA,
Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

BUGUN — G‘AFUR G‘ULOM TAVALLUD TOPGAN KUN

“SHUM BOLA”NING JOZIBASI



“Shum bola” asari G‘afur G‘ulom ijodining nasrdagi yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. **Qissaning fazilatlari juda ko‘p. Aynan shu asarida adibning cho‘ng badiiy mahorati yaqqol ko‘rinadi. Muhimi, “Shum bola” o‘zbek adabiyoti tarixidagi mingdan ortiq qissalar orasida o‘z poetik qimmati** bilan hamon birinchilar qatorida turibdi. Bu asarni o‘qigan borki, G‘afur G‘ulomning ibrat maktabidan saboq olishi tabiiy.

-1-

G‘afur G‘ulomning xos shogirdlaridan biri Erkin Vohidov aytadiki:

“El ustozim, men esam – tolib!
So‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim”.

Xalqdan olib xalqqa berish G‘afur G‘ulomga ham xos edi. Xalq orasida keng tarqalgan ta’birlardan biri shuki, kimdir mehmon bo‘lib yoki safardan keladigan bo‘lsa, “haligina **qovog‘im uchib turgan** edi” ta’biri qo‘llanadi. Shum bola uyidan qochib, ammasining uyiga borganida unga “Kel-a, bo‘yingdan girgitton bo‘lib ketay, seni qaysi shamol uchirdi, akam tirilib keldimi, haligina **qovog‘im uchib turgan** edi” deydi, pochchasi ham “necha **kundan buyon ko‘zim uchib,** yo‘lpashsha aylanib yurgan edi...”, deya Shum bolani mamnuniyat bilan qarshi olishadi. Ko‘z-qovog‘i uchsa, odamlar orasida yaxshi yoki yomon nimadir sodir bo‘lishiga tegishli irim bor. Holbuki, buning inson hayotiga, kimningdir kelish-ketishiga aloqasi yo‘q. Ammo Shum bolani ammasi bilan pochchasi xush kayfiyat bilan, kelganidan xursandligini bildirish uchun ko‘zi, qovog‘i uchganini aytadi. “O‘ng qabog‘im uchdi-ya, chap qabog‘im uchdi-ya”, degan shaklda xalq orasida qo‘shiqlar ham bor. Ulug‘ shoirimiz Abdulla Oripovning umri oxirida xalqona uslubda yozgan sog‘inch tuyg‘ulari jamlangan she’rlaridan biri ham “O‘ng qovog‘im uchdi-yo” deb nomlanadi...

G‘afur G‘ulom xalq hayotini, xalq og‘zaki ijodi namunalarini, mumtoz Sharq adabiyoti durdonalarini puxta bilar edi. Faxriddin Ali Sayfiyning fors tilida bitilgan ixcham, qiziqarli hikoyat va rivoyatlar, mashhur shaxslar hayotiga doir lutflar jamlangan “Latofatnoma” asarida “Tani boshqa dard bilmas” sarlavhasi ostida qiziq bir voqea bayon qilinadi. Rivoyat mazmuniga ko‘ra, bir badavlat kishi yo‘lda och qolgan badaviy hamqishlog‘ini uchratib qolib, undan hol-ahvol so‘raydi. Badaviy boshida yaxshi xabarlardan so‘zlaydi. Ammo zodagon tanishi xurjunidagi yeguliklarini o‘zi yeb, unga e’tibor bermagach, badaviy qorin to‘ydirish ilinjida quvlik yo‘liga o‘tadi. Boyvachcha yaxna go‘sht chaynab, suyagini daydi itga uloqtirgan paytda ularning o‘rtasida qiziq suhbat bo‘lib o‘tadi.

Darhaqiqat, boyvachcha yo‘lovchi bilan badaviyning mazkur suhbati G‘afur G‘ulom asaridagi “innankeyin-chi” – Sariboy bilan Shum bola o‘rtasidagi kulminatsion diolog mazmuniga qaysidir ma’noda yaqin keladi. “Latofatnoma”dagi rivoyatda kuchuk, tuya, yo‘lovchining xotini, o‘g‘li bilan uyg‘un ketma-ketlik bor. “Shum bola”da boyning dandon sopli pichog‘i, tozi it va to‘riq qashqa otining o‘lishi, qo‘rg‘onchaga o‘t ketishi, Bo‘riboyvachchaning o‘lishi – bu hodisalarni qiyoslash va adib suv ichgan buloqlar xususida mulohaza yuritish ham mumkin.

Darhaqiqat, G‘afur G‘ulom xalq orasida tarqalgan bunday latifanamo rivoyatlarni juda yaxshi bilar edi. Taniqli munaqqid Ozod Sharafiddinov fikriga ko‘ra: “U nafaqat mohir latifago‘y edi, balki o‘zi ham qanchadan qancha yangi latifalarni to‘qib chiqarar, keyin ular Nasriddin afandi haqidagi hikoyalar tarzida keng tarqalardi”.

“Shum bola” qissasidagi rivoyatga o‘xshash voqealardan ayrimlari xalq ichidan olingan bo‘lsa, ko‘plari G‘afur G‘ulomning o‘z to‘qimalari, improvizatsiyalari ekaniga shubha yo‘q, albatta.

-2-

“Shum bola” qissasining bosh qahramoni gohida “qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadigan” ertaknamo manzillardan o‘tadi. Qissada xalq og‘zaki ijodining turli janrlari, jumladan, maqollardan ham namunalar keladi. “Semizlikni qo‘y ko‘tarar”, “Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak”, “Maslahatli to‘n tor kelmas”, “Sheriklik oshni it ichmas”, “El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi”, “Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi” kabilar fikrimizga misol bo‘ladi. Maqollar qissaning turli epizodlarida har xil vaziyatlarda turli qahramonlar tilidan aytiladi. Ayniqsa, har gapga “Yaxshi buzoq ikki onani emibdi” kabi bir maqol qo‘shadigan Hoji bobo musofirlik nima ekanini yaxshi biladi; shu bois Shum bolaga “Kishi musofir bo‘lmaguncha, musulmon bo‘lmaydi”, deya o‘git beradi.

Takyaxonadagi shubhali voqealar girdobida qolgan Shum bola: “Gunohing bo‘lmay turib, shubha ostida yashashdan ortiq azob yo‘q”, degan hayotiy tajribadan o‘tgan hikmatni aytadi. Har bir zamonga mos keladigan va aslo inkor qilib bo‘lmaydigan dahshatli haqiqat bu. Kimki gunohsiz, hech bir aybi bo‘lmagani holda shubhali shaxs deya gumonlanib oylar, yillar davomida tinch-osoyishta istiqomatiga izn berilmasdan uyining tevaragida hamisha xufiyalar izg‘ib yurganini bilsa, tabiiyki, hech baloni, ayniqsa, o‘zining mutlaqo aybsiz va aslo gunohsiz ekanini tariqcha isbotlay olmay, sarson-sargardon bo‘lsa, ming bora tabiiyki, eng katta azob-iztiroblarni boshidan kechiradi. “Gunohing bo‘lmay turib shubha ostida yashashdan ortiq azob yo‘q” – bu nafaqat Shum bolaning, balki G‘afur G‘ulomning ham shaxsiy dardidek tuyuladi odamga. O‘z tegrasidagi ijtimoiy adolatsizliklarni ko‘rib, kichik bir doirada yozg‘iradi: “Armonlarim, hasratlarim ichimda buloq bo‘lib qaynab yotibdi, lekin ming afsuski, buloqning ko‘ziga qoziq qoqilgan” (F.Abdullayevning G‘.G‘ulom haqidagi xotiralaridan). Haqiqatni aytishning yo‘llari, usullari ko‘p. Faqat haqiqatning rangini bilish kerak, faqat haqiqatning yukini sezish kerak, faqat haqiqatning ko‘ziga tik boqish kerak. Mustabid tuzum, g‘ayriodil jamiyat to‘g‘ri, haqgo‘y, pokiza odamlarni hech qachon sig‘ishtirmadi, tinchini bermadi. Ularni azoblarga, tuhmatlarga, sinovlarga, xufiyalarga duch qildi.

- 3 -

Badiiy asar tarkibida keladigan kitoblar muayyan poetik vazifa bajaradi; asardagi obrazlarga bog‘lanib, ularning bilim darajasi va dunyoqarashini ko‘rsatadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi tarkibida bir necha marta Qur’oni karim tilga olinadi. “Haftiyak” – Qur’onning yettidan bir qismi eslanadi. Shum bolaga Qo‘rg‘ontagida Hasanboy domla “Ustodi avval” kitobidan o‘qitib, savodini chiqaradi.

Ko‘kterakdagi bozorni ta’rif-tavsif qila turib: “Bay-bay, bunday bozor “Qissas ul-anbiyo”da ham, “Huriliqo” degan kitobda ham yozilmagan, hech qayerda – tarixda yo‘q”, deya kitoblar nomiga murojaat etadi.

Tanishgan odamlar ko‘pincha o‘zaro kitoblardan, bilim va savoddan so‘z ochadilar. Hoji bobo Shum bolani novvoyxonada uchratib ergashtirib ketar ekan, undan o‘qigan kitoblari haqida so‘raydi. “So‘fi Olloyor”ning yarmisida qochganman” deydi. Qissa hoshiyasida bu jumlaga “Eski maktabda savod chiqqandan so‘ng o‘qitiladigan kitob. Kattaqo‘rg‘onlik So‘fi Olloyor degan shoir asari (XVII asr)” degan izoh yoziladi. Hoji bobo Shum bolaning javobiga munosabat bildirib, so‘z o‘yini bilan aytadiki: “Bay-bay, gapning ayni qizg‘in joyida qochgan ekansan. “Jahannam”dan qochgan ekansan-da, a, bolam?

– Ha, shunaqa.

Chol “So‘fi Olloyor” kitobining “Jahannam qasidasi”ni kuylay boshladi...”

“Sabotul-ojizin” kitobidan olib o‘qilayotgan bu parcha Hoji boboning savodi, darajasi, dunyoqarashidan darak beradi. Shuningdek, Hoji boboning takyaxonasidagi mijozlar “Jangnomai Abu Muslimi sohibqiron” kitobini o‘qishadi. “Axloqi Muhsiniy” esa bozordagi Ko‘sa voiz tilidan o‘z shajarasi munosabati bilan tilga olinadi. Badiiy asarlar tarkibidagi kitoblar, asarlar tarixiy davr muhitidagi kitobxonlikni anglatishga yordam beradi.

Kitobdan odam bahra olishi lozim. Kitob insonning ma’naviyatini yuksaltirishi, hayotiga mazmun bag‘ishlashi kerak. Aks holda odamning to‘rt oyoqli jonivordan farqi qolmaydi. Shuning uchun asarning bir o‘rnida Shum bola foydasiz ishga nisbatan “kitob ortilgan eshakday bebahra qolaveramanmi”, deb o‘xshatib yozg‘iradi.

- 4 -

G‘afur G‘ulom – shoir. Nasrda ham unga she’r begona emas. Shuning uchun “Shum bola” asari matnini she’riy parchalar bilan ziynatlaydi, muzayyan qiladi. Zero, qissa G‘afur G‘ulomning liroepik tafakkuri mahsuli o‘laroq maydonga kelgandek taassurot qoldiradi. “Shum bola”da shiddat va o‘ziga xos mahzun, yumoristik ichki ohang bor. O‘ndan ortiq nazm parchalari berilgan qissa she’riy asardek o‘qiladi.

“Daryolarning ul yuzida
Uylaringiz-a, yor-yor.
Oqarishib ko‘rinadi
Bo‘ylaringiz-a, yor-yor”.

Bunday she’rlarning aksariyati xalq og‘zaki ijodiga tegishli. Ayrim o‘rinlardagi qo‘shiqlar qalandarlarning “Yo ollo do‘st, yo ollo. Haq do‘st, yo ollo” kabi zikrlaridan iborat. Shuningdek, zarur epizodlarda mumtoz adabiyotdan, deylik, So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” kitobidan:

“Jahannam uzra bir ko‘prik erur, oh,
O‘shal ko‘prik Sirot otliq guzargoh.
Qilichdan tez erur, qildin ingichka,
Pushaymonlar o‘shal kun tushgay ichka”, –

degan parcha olinadi.

Qissaning oxiriga kelib, qish kirib, ilk qor yog‘ishi munosabati bilan Shum bola qorxat yozadi. “Qorxat bu turur:

Qorni yog‘dirgan xudoyimning o‘zi,
Xat borib tegsin, kiyim-boshning so‘zi.
Hoji bobo, bilasiz, egnimda yo‘q,
O‘z pulimga olgali qo‘ynimda yo‘q…”

Tabiiyki, “yetim shogird iltijosi” va ilhomiga G‘afur G‘ulomning o‘zi kotiblik qiladi. Shum bola taqdim etgan she’rning muhokamasi ham qiziq: “Yetti marta Haj ato etsin Xudo”ni eshitganda ko‘ziga yosh oldi. “Yetim shogirdingiz” degan imzoga kelganda iyib ketdi”. Hoji bobo unga: “Buni sen yozdingmi, bachchag‘ar, tab’i nazming ham bor ekan-ku...”, deydi hayrat va mamnuniyat bilan. Shum bolaga qora duxoba qalpoq sovg‘a qiladi. Zero, gapga nihoyatda chechan Shum bolaning she’riy qobiliyatiga, “Qorxat”i – “tab’i nazmi”ga birov shubha qilmaydi.

Shum bolaning shumligi tutib yozgan “qorxat”ida beozor va hazilga moyil milliy qadriyatlardan biri o‘z aksini topgan, deb hisoblash o‘rinli. Qolaversa, to‘qqiz yoshida otasidan, o‘n beshida onasidan ajralgan G‘afur G‘ulom yuragida yetimlik iztiroblari bor:

“Yetimlik nimadir –
Bizlardan so‘ra.
O‘ninchi yillarning
Sargardonligi;
Isitma aralash
Qo‘rqinch tush kabi
Xayol ko‘zgusidan
O‘chmaydi sira.
Men yetim o‘tganman,
Oh, u yetimlik...”.

Oradan yillar o‘tgan bo‘lsa ham, bu azob-uqubatlar shoirning “xayol ko‘zgusidan” aslo o‘chgan emas.

- 5 -

G‘afur G‘ulom o‘z qahramonlarini mahallasi, tevarak-atrofidan topadi. Shum bola xarakteriga o‘z tabiatidagi qitmirona-yumoristik beg‘ubor kayfiyatini yuqtiradi. Qissadagi Hoji bobo xarakteri xususida adibning shunday e’tirofi bor: “Hoji boboga marhum dadamning ko‘p qiziq xislatlarini, so‘zlarini shundoqqina yozib qo‘ya qoldim. Dadam ham ko‘chada yurganlarida hassalarining uchi bilan yo‘ldagi qog‘ozlarni titib ko‘rardilar, non tushib qolgan bo‘lsa, olib o‘pardilar, ko‘zlariga surtib, keyin devor kovagigami, balandroq joygami qo‘yardilar. Hoji bobo ham shunaqa qiladi” (Said Ahmad xotiralaridan). Shum bolaning boshida tuxum chaqilishi hodisasining ham biografik asoslari bor. Nazarimda, G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini muallif e’tiroflari, arxividagi manbalar, maktublar, zamondoshlarining xotiralari negizida biografik metod asosida bemalol o‘rganish mumkin.

Qissaning umrboqiylik sirlari, jozibasi, yashovchanligi, o‘quvchilarini o‘ziga ohanrabodek tortib turish quvvati – bular ko‘plab mulohaza va muhokamaga munosib, albatta.

G‘afur G‘ulom qissasida anglash lozim bo‘lgan “ezopona til” ham mavjud. “Shum bola” faqat kulgi, piching yoki Shum bolaning sarguzashtlari bayoni uchungina yozilgan emas. Darhaqiqat, Shum bola obrazi G‘afur G‘ulomga o‘z hayot falsafasi, davr taloto‘plari, katta-kichik odamlar qiyofasi, inson tabiatidagi evrilishlar, rost va yolg‘on, olim va johil – shu toifadagi bir dunyo tushunchalarini badiiy talqin etish imkonini beradi. Ijodkor xayolida voqelik g‘ujg‘on yuradi; dardi bo‘ladi. Yo‘sinini, usulini, bayon tizimini topolmay qiynalishi mumkin. Shum bola obrazi – G‘afur G‘ulomning baxtli topildig‘i. Qolaversa, Shum bola o‘z holini, ko‘rgan-kechiriganlarini o‘zi so‘zlaydi. Qissaning estetik qiymatini belgilashda voqelikning bunday bayoniga urg‘u berish ham muhim, albatta.

Bahodir KARIM

TARMOQLARDA NIMA GAP?

“Ovoz” loyihasi paydo bo‘lganidan beri kuy-qo‘shiq haqida yana o‘ylay boshladim. O‘tgan asr Yevropa estradasi va operasini tinglashga kuchli ehtiyoj uyg‘ondi. Va uyda tinglab yurish, bahonada bolalar qulog‘ida qolishi uchun qo‘shiqlar ro‘yxatini tuzishim zarurligini tushunyapman. Negaki, bugungi yarador dunyo buyuk toqatga, kenglig-u birodarlikka, o‘zligidan kechmagan kosmopolit tafakkurga nihoyatda muhtoj. Sara kuy-qo‘shiq ruhiy to‘siqlarni yengadigan, ichki hurriyatga olib boruvchi, “men” degan mayda qobiqchani yoruvchi oson yo‘llardan biri.

O‘ZINGDAN O‘ZDING — O‘ZGADAN O‘ZDING

Masalan, Kris Ri yoki Demis Russos nolalarida dard va sayqallangan ovozdan tashqari cheksizlik, oliy uyg‘unlikka intilish bor. Yuksak san’atni yaratish uchun dard va ovozning o‘zi kifoya emas, hurlik hissi, samo sog‘inchi ham havodek zarur. O‘shandagina xonanda ishqida jahonni sig‘dira olish holatini chiqarib bera oladi. Botir Zokirovning “Maro bibus”ida shu kayfiyat chiqqan, ya’ni koinot o‘z sirini ochgan, tuyg‘ular buyuk ma’no tomon talpinadi, ichingdagi qul quviladi.


* * *

Tansen Akbarshoh saroyidagi musiqachi edi. Hukmdor eng yaxshi hofiz-u mashshoqlarni, sara shoir-u faylasuflarni faqat o‘z dargohida ko‘rishni xohlardi. Minglab musiqachilar orasidan Tansenni tanlab oladi. Qayerdaki Tansen bo‘lsa, o‘sha atrofda hech kim hech narsa ijro etmasin, deya farmon chiqariladi. Kimki uning san’ati bilan bellashishga jur’at topib, bahsda yutqazib qo‘ysa, o‘sha zahotiyoq yo zindonband qilinadi, yo saroydan badarg‘a etiladi. Ko‘plab musiqachilar bu savdoga giriftor bo‘lgandi.

Bauju Bavara esa taqdirga tan bermadi. Bauju ismi, Bavara taxallusi edi. Bavara – telba, degani. Uning hayotdagi birdan bir orzusi san’atda qo‘l yetmas yuksaklikka ko‘tarilsa, hatto Tansen ham taslim bo‘lsa… Tansen uning uchun raqobat mezoniga aylangandi. Kuniga yigirma to‘rt soat ishlardi. Oxiri sabog‘ini mukammal qilish maqsadida murabbiy Xaridasning huzuriga boradi. U Tansenning ham ustozi edi.

– Bir kun kelib Tansendek san’atkorning ustozi bo‘lishim mumkinligini hecham o‘ylamagandim, – deydi faxrlanib Xaridas. – Sen ham ajoyib musiqachisan. Yagona kamchiliging, kimdandir o‘zishni xohlaysan. Axir, bu istakning musiqaga hecham aloqasi yo‘q-ku. Mana shu narsa iste’doding kuchini kesadi. To‘g‘ri, noyob ovozing bor, mahorat bilan chalasan, lekin yuraging musiqaga tegishli emas, orzu-havasga qaram. Agar noma’qul niyatingdan ozod bo‘la olmasang, hech qachon Tansen bilan bo‘ylasha bilmaysan. Unda raqobat tuyg‘usi bo‘lmagani bois ham hamisha g‘olib.

Bauju Bavaraning o‘zini yengishi oson emas edi. Mayli, so‘qir orzu bo‘lsa-da, azbaroyi shu tufayli hayotini san’atga bag‘ishladi. Lekin ustozning tanbehi ham o‘rinli. Vaqt kerak, bu-da bir riyozat… Bora-bora asta-sekin Tansenni unuta boshladi…



Oradan yillar o‘tdi. Qariya Xaridasning ikki oyog‘i ham ishlamay, yurolmay qoldi. Ostona hatlab chiqolmasdi. Qaniydi, hech qursa uyi yaqinidagi Krishna ibodatxonasiga bora olsa… Chunki Krishnaga yukunmasdan, tuz totishni o‘ziga ep ko‘rmasdi. Qanchadan qancha hakimlar bu zotning dardiga darmon izladi, baribir tuzalmadi.

Ustozining ahvolidan darak topgan Bauju Bavara o‘sha zahotiyoq qishlog‘idan yetib keladi. Erta tongda, aynan Xaridas uyg‘onadigan mahalda ibodatxona devoriga suyangancha xonish qila boshlaydi. Bauju kuylayotgan qo‘shiqdan shunday ma’no sizib chiqardi: “Diydoringni ko‘rmoqqa intizor ko‘zlarim… O‘tinaman, oyog‘imga kuch ber. Ayt, aybim nima, nega seni ko‘rishdan mahrumman? Mendan yuz o‘girma…”

San’atkorning mo‘jizakor navosidan kuch olgan Xaridas oyoqqa turadi, shukrona aytmoq uchun ibodatxonaga qadar yurib boradi. Ibodatdan so‘ng uyiga qaytayotib shogirdiga yuzlanadi:

– Endi Tansenning yonida bemalol qo‘shiq aytishing, bellashishing mumkin. Chunki sen musobaqalashish xohishidan, ya’ni birinchilik istagidan xalos bo‘libsan. Tabrigimni qabul et. San’ating xasta oyog‘imniki davolay oldimi, demak, har qanday qulfga tushadigan sehrli kalit sohibisan.

Bauju Bavara ustozi Xaridasning nigohiga o‘ychan boqqancha, taajjub ohangida javob berdi:

– Buni qanday tushunmoq kerak?.. Men faqat musiqani sevaman, yolg‘iz kuyga oshuftaman. Tansen degan ismni mutlaq unutdim. Kim bilandir bellashmoq istagi bolalarcha g‘o‘r xohishim bo‘lgan. Siz haq edingiz – o‘shanda men mag‘lub edim. Hozir ham haqsiz. Lekin qalbimda g‘oliblik da’vosining o‘zi yo‘q.

Xaridas mamnun holda shogirdini bag‘riga bosadi:

– Bauju, o‘g‘lim, sen chindan bavarasan! Mening telbamsan! Hozir shu daraja yuksalgansanki, ishon, Tansendan ham o‘zgansan!

OSHO,
hind faylasufi


* * *

San’at sotiladigan buyum yo musobaqa maydoni emas, mezonlarga sig‘maydigan tilsim ekanini anglagan Shaxsgina turfa xil kimo‘zar o‘yinlarni inkor etadi. “Men” degan dahshatli zanjirdan ozod bo‘lmas ekansan, o‘zingni xoh o‘tga ur, xoh cho‘g‘ga, baribir ko‘lankasan, xolos. Buning uchun ijod muroqabaga aylanishi zarur.

Iqbol QO‘SHSHAYEVA
feysbuk sahifasidan olindi

YODNOMA

HAQQO‘Y ADIB VA INSON



Tog‘lar uzoqlardan haybatli ko‘rinadi va yaqiniga borsangiz, ularning qorli cho‘qqilari ko‘klarga tutashib ketganday tuyuladi.

Har qaysi odamning bir o‘zak xislati bo‘ladi. Boshqa barcha xislatlarini shu o‘zak xislat boshqaradi va o‘z ortidan ergashtiradi.

Shoir, adib dramaturg Shuhrat (G‘ulom Alimov)ning ham shunday o‘zak xislati bo‘lgan.

Uning haqqo‘yligi – odamiyligi va adiblik faoliyatining o‘zak-negizi edi.

Shuhrat aka haqqo‘y inson edi.

U haqiqat uchun mahkam turardi.

U o‘z hayotini romanlarga, o‘z qalbining noyob ko‘tarinki kechinmalarini she’rga, dostonga, balladaga aylantirardi.

Zotan, uning hayoti xuddi romanga – yirik, keng planli, bag‘irdor, tayyor romanga o‘xshardi.

Esimda: “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas”larni ilk bora o‘qiganda, bu ikki o‘ziga xos bag‘rikeng asarning Elmurod va Sodiq ismli bosh qahramonlari baayni Shuhrat akaning o‘zi ekanligini ko‘rib, tuyib, hayratga tushganman.

Yozuvchi, iloji yo‘q, ma’lum ma’noda va darajada, me’yorda bichib-to‘qiydi, yozayotganlariga jindak yolg‘on ham qo‘shadi, qahramonlari va ular boshiga tushgan voqealar, ko‘rgiliklarni bo‘rttiradi, ideallashtiradi, bir so‘z bilan aytganda, har tomonlama boyitadi. Salmoqli, yaxlit adabiy hodisaga aylantiradi.

Albatta, Shuhrat o‘zbek adabiyoti qahramonlari galereyasida juda yorqin o‘rin tutgan o‘z qahramonlariga o‘zidan nimalarnidir qo‘shgandir, umumlashtirgandir (tanqidchi, adabiyotshunoslar tili bilan aytganda) – agar shunday bo‘lsa, bu adabiy mehnatda, badiiy hunarda juda tabiiy hol, – lekin “Shinelli yillar”, “Oltin zanglamas” va sal so‘ngroq “Jannat qidirganlar”ni o‘qiganda men buni bir o‘quvchi sifatida sezmagan, payqamagan, qayeri to‘qima, qayeri real, deb o‘ylab o‘tirmaganman. Menga bu romanlar nihoyatda hayotiy – voqealarning bari rost, real bo‘lib ko‘ringan. Shuhrat romanlarini estetik idrokimga shunday qabul qilganman.

Yozuvchi bamisoli hech narsani bo‘rttirmagan, hech narsani boridan ko‘ra chiroyliroq, yombiroq, qabariqroq qilaman deb bosh qotirmagan, balki borini boricha yozgan.

Noyob va adabiy ijodda behad qimmatli hayotiylikka, hayotiy qabariqlikka erishgan. Buni qarangki, shu bilan birga Shuhrat romanlari ayni chog‘da, yana adabiyotchilar tili bilan aytadigan bo‘lsak, hayotdan nusxa ko‘chirish ham emasdi. Bironbir tasvirda naturalizm ko‘rinmas va g‘ashga tegmasdi. Va uning tasviri “fotografiya” usulidan, fotografiya rostgo‘yligi va aniqligidan ham juda yiroq edi.

Shuhrat romanlarida hayotga bu qadar yaqinlik, bu qadar hayotiylikning siri nimada edi?

Bu sirning kalitini men adibning o‘zida, uning yorqin, azamat, devkor fe’l-atvorida, odamlarga, o‘z yozuvchilik va insonlik qismatiga bo‘lgan yondashuvlarida, qoyaday mustahkam ma’rifatli prinsiplarida – hech yo‘ldan toymas, og‘mas, bo‘yalmas, o‘zgarmas olijanob adolatida ko‘raman.

Shularning yaqinligida u Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Munavvar qori, Cho‘lpon, Ubaydullaxo‘ja, Usmon Nosirlarga kelbati tortardi.

70-yillar tugayotgan bir pallada Shuhrat uyiga chaqirdi. Oydin bilan birga bordik. Olcha pishgan payt edi. Mehmondo‘st Tursunoy opa bir chinni tovoqda obdon pishgan “shponka” olcha terib kelib dasturxonga qo‘ydi. Ular Oydin bilan ichkarida dardlashisharkan, biz Shuhrat aka ikkimiz yoz oqshomining salqinida orom olib, bo‘rtib, tarang tortib pishgan bir tovoq “shponka”ni paqqos tushirganmiz. Olchaning hushyor torttiruvchi turush va juda yoqimli ta’mi ko‘ksimizni to‘ldirardi.

Sir yo‘q: men jadidlarga, ularning ishlari, asarlariga mubtalo edim. Asarlari ham, ishlari ham yuragimga sarimoyday yoqardi. Suhbat chog‘ida ma’lum bo‘ldiki, Shuhrat aka mendan ko‘ra yuz karra, balki ming karra ortiq jadidlar mubtalosi ekan. Ular ijodini xo‘b o‘qigan, ularning hayoti qirralari, fojialari, ajib qahramonliklaridan boxabar ekan.

O‘shanda ulkan, chuqur, serob, serto‘lqin daryo bo‘yida ikki soat birga o‘tirganday, daryo shukuhi, fayzi, ulug‘vorligidan bir umrga yetgulik bahra olganday bo‘lganman.

Uyga qaytarkanman, butun o‘yxayolimni Shuhrat aka bilan bo‘lgan suhbatning nashidasi chulg‘agan edi.

O‘ylardim: nega Shuhrat aka shunday balog‘at pallasida jadidlar haqida roman yozmaydi? Nega bu noyob qahramonliklarni aks ettirmaydi? Axir, bu xalqimiz uchun boshqa hech narsa bilan solishtirib bo‘lmaydigan va boshqa hech narsa bilan o‘rni to‘lmaydigan ibrat, kurash, iroda maktabi bo‘lishi mumkin edi-ku? Ammo ajab! Bu bo‘shliqning o‘rni xalqimiz uchun hanuz to‘lmagan! Hanuz bu ulug‘vor cho‘qqilar adabiyotimiz tomonidan zabt etilmagan, hamon bu ulkan ijtimoiy qimmatga ega ish adiblar bo‘ynida qarz bo‘lib turmoqda! Agar Shuhrat jadidlar haqida bir emas, hatto bir necha roman yozishga o‘tirsa, bunga qurbi-qudrati yetar va bular o‘zbek xalqining ulug‘ va o‘lmas, qurimas romanlari – hayot va go‘zallik buloqlari bo‘lurdi! – o‘sha kech suhbatimiz ta’sirida shunday o‘ylardim va xayolim go‘yo o‘sha yozilmagan romanlarning sahifalarini birma-bir varaqlardi. Zotan, Shuhrat akani jadidlarday ulug‘ millatparvar va ijtimoiy muborizlar haqida asarlar yozishga baayni yetilgan, yuksak insoniy, ziyoli, balog‘atga erishgan adib, deb tanirdim.

Ko‘p yillardan buyon hayotda roman-adiblar bo‘ladi deb yuraman. Behbudiy shunday roman-odam edi. Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon, So‘fizoda, Hamza... shunday roman-odamlar edi. Nazarimda, bizning katta zamondoshimiz, shoir va adib Shuhrat ham xuddi shunday va mana shularday roman-odam va roman-adib edi. Hali hamon shu fikrdaman, shu o‘ydaman.

Roman-odam fikrimcha, yirik, salobatli, o‘z g‘oyalari, o‘z hayotiy prinsiplari, o‘z ijodiy, insoniy falsafasiga ega shaxsdir. U voqealar atrofidamas, voqealar uning atrofida, uning orbitasida gulduros solib aylanadi. Zotan, roman-odam katta hayot fazosi – orbitasi bor odamdir. Bu orbitada davrning juda ko‘p rang-barang voqeliklari, inson taqdirlari, bir-biridan ulug‘, serzarda, ziddiyatli voqealar charx uradi va zamon kishilarini o‘z aylanish doirasiga ohanraboday tortadi.

Shuhrat akani zamondoshlari va tengdoshlari shunday ulug‘ orbitaga ega inson, adib deb bilishar, qadrlashardi. Uning barcha tengdoshlari, safdoshlari: Said Ahmad, Shukrullo, Yong‘in Mirzo, Vosit Sa’dulla, Turob To‘la, Asqad Muxtor, Ne’mat Toshpo‘lat, Hibziddin Muhammadxonov, Po‘lat Mo‘min, Hakim Nazir, Pirimqul Qodirov, Ibrohim Rahim... uni g‘oyatda e’zozlashardi, qayda bo‘lmasin, buyuk hurmat-ehtirom bilan Shuhrat haqida so‘zlashardi.

Shuhrat aka ham o‘zi bilardi, kuch-qudrati nimalarga yetishi, nimalarga qodirligini anglar, his qilardi. Bir kuni u aytgan ekan: “Men bu hayotning atrofidamas, naq ichida bo‘lganman!” Bu o‘ta mardona gap! Haqqo‘y insonning ulug‘ mashaqqatlar, urinishlarda topgan jo‘n gapi! Shuhrat aka: Sodiq bu – men, Elmurod bu – men! – deb balki aytmagandir. Lekin barcha fozil zamondoshlari sezar edilarki: ha, Sodiq bu – Shuhrat, Elmurod bu – Shuhrat!



Suratda: Said Ahmad, O‘lmas Umarbekov, Shuhrat, Omon Matjon va Qaysin Quliyev.

O‘tmish hukumatdorlarining barcha to‘p-zambaraklari, ajal qurollari, buni qarangki, ayni haqqo‘ylarga qarshi qaratilgan edi. Haqqo‘yga o‘zini mehnatkashparvar qilib ko‘rsatishni sevadigan davlat tuzumida ham kun yo‘q edi!

Shuhrat she’riyat, nasriy so‘zlarida, hayot ichida haqqo‘y edi – urushning butun dahshatlarini ko‘rdi, Stalin lagerlari azoblarini boshidan kechirdi, nisbatan tinch, yaxshi zamonlar kelganda ham bu haqqo‘yni katta hayotdan chetlatishga, iloji boricha uni cheklash, ovozini o‘chirishga, asarlarini bo‘g‘ishga, e’tiborsizlik, qadrsizlik chakalakzorlariga uloqtirib tashlashga ko‘p urindilar. Metindan bino bo‘lgan Shuhrat esa o‘zining jadid ustozlari kabi titramadi, adolatsizliklar oldida bosh egmadi, alp qomatini hamisha tik tutdi. Adib O‘tkir Hoshimov Shuhratning bu xususiyatini xo‘b yorqin qilib aytgan: “Shoir, adib, dramaturg Shuhrat zamon azoblaridan yiqilib, to‘shakka yopishib qolgan chog‘ida ham titroq qo‘llari bilan haqiqat oldida titramaydigan asarlar yozdi”.

1998-yilda Shuhratning “Mashrab” romanining ilk fragmentlari va zamondoshlarining u haqdagi xotiralari bir kitob holida nashr qilindi. Bu kitobda Shuhratni yaxshi bilgan bir qator adiblar, uning iqtidorli shogirdlari, zamondoshlarining juda qimmatli guvohliklari, ma’lumotlari, qalbdan quyilib chiqqan izhorlari jamlangan. Bu kabi xotiralar ayni chog‘da adiblar va o‘quvchilarning Shuhratga bo‘lgan ulkan muhabbati ehtiromining ovozidir. Shunday muhabbatga sazovor bo‘lish insonga mangu sharaf, odamiylik shuhratining chinakamligidir.

Ibrohim G‘AFUROV,
O‘zbekiston Qahramoni

XALQ TAQDIRINI ANGLASH

Boshlanishi 1-sahifada.

To‘lepbergen og‘a o‘z zamonasining zabardast adiblari bilan do‘st-u birodar edi. 1998-yilning 4-noyabrida “Правда Востока” gazetasida atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning To‘lepbergen og‘aga yo‘llagan samimiy maktubi e’lon qilindi. U shunday boshlanardi: “Qadrli birodarim! Har xil sabablarga ko‘ra sening “Qoraqalpoq dostoni”ngni bafurja o‘qib chiqishga hech vaqt topolmasdim. Nihoyat, kechagina kitobingni oxirigacha huzur qilib o‘qidim. Rostini aytsam, keyingi yillarda, ayniqsa, o‘zim ishlayotgan paytlarim taqdiri azal ato etgan umrning har bir daqiqasini avaylab-asrashga, hatto mutolaadan ham o‘zimni tiyishga harakat qilayotirman. Nazarimda, o‘zing ham xuddi shunday tashvishda yurgan bo‘lsang kerak. Bizning yoshimizga yetgan odamlar (yanglishmasam, kelasi yili sen ham 70 yoshga to‘lasan) ko‘proq ish qilishni istaydi. Shunga qaramasdan, sening “yostiqdek” trilogiyangni o‘qib chiqdim. O‘qiganda ham nihoyatda qiziqib, ochiqchasiga aytadigan bo‘lsam, huzur qilib o‘qidim…”

O‘z navbatida, ustoz To‘lepbergen Qaipbergenov ham 1999-yilning 25-martida Chingiz Aytmatov tavalludining 70 yilligi munosabati bilan YUNESKO tomonidan Parij shahrida o‘tkazilgan anjumanda qadrdon do‘sti haqida shunday ajoyib so‘zlarni aytgan edi: “Barchamiz suyub tilga oladigan Chingiz Aytmatovning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlab YUNESKO shafeligida jahonning ko‘p mamlakatlari vakillari ishtirokida tashkil etilgan bugungi xalqaro anjuman, mening nazarimda, insoniyat tamaddunining bir-biriga yaqinlashishida, dunyoni Sharq va G‘arb deb bo‘lishga odatlanib qolgan ko‘nikmalarga barham berishga qaratilgan sobit qadamlardan biri bo‘lishi aniq. Chingiz Aytmatovning ijodiy faoliyati yangi ming yillik bo‘sag‘asida ana shunday birdamlikning natijali hamda yaqqol tarzda ro‘yobga chiqqaniga yorqin misol bo‘la oladi…”



To‘lepbergen og‘a atoqli shoir Abdulla Oripov bilan ham yaqin birodar edi. Ko‘p yillar davomida men bu ikki mashhur so‘z zargarlarining gohi sokin, gohi qaynoq bahslariga guvoh bo‘lganman. Ular bir-birini juda qadrlar edilar. 2000-yilning 9-sentyabrida Nukusda To‘lepbergen og‘a tavalludining 70 yilligini nishonladik. Abdulla Oripov o‘sha kezlarda mas’ul lavozimda ishlayotgan Ahmadjon Meliboyev bilan birga uchib keldi. Berdaq nomidagi musiqali drama teatrida so‘zga chiqqan Abdulla aka: “Mabodo jahon xalqlarining ramziy namoyishi o‘tkaziladigan bo‘lsa, qoraqalpoq xalqi vakillari qatorida Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq bobolarimizdan keyin, albatta, Ibroyim og‘a bilan To‘lepbergen og‘a ikkovi shaxdam qadam tashlab o‘tgan bo‘lar edi!”, deb lutf etdi. Tantanadan keyin katerda Amudaryo bo‘ylab suzganimizda ham adib sha’niga yaxshi gaplarni aytdilar.

Men 16 yil davomida Abdulla aka bilan juda ko‘p safarlarda, Zomin va Aqchako‘l anjumanlarida, qo‘shni hududlarda birga yurdim. Har gal u kishi mendan: “Ikki oqsoqol qalay? Ulardan xabar oldingmi?” deb so‘rar, ustoz ular haqidagi xushxabarlardan xursand bo‘lar edi. Qahramon adiblarimiz Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Ibrohim G‘afurov va O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ham hamisha qoraqalpoq elining ikki buyuk so‘z san’atkorini so‘rab-surishtirishar, salom aytishar edi. To‘lepbergen og‘am o‘nlab o‘zbek shoirlari, adiblari, olimlarini siylar edi.

Sobiq Ittifoqning mashhur adiblari orasida To‘lepbergen og‘aning ustozlari, do‘stlari bisyor edi. Ayniqsa, atoqli rus shoiri, masal janri ustasi, ko‘p yillik Rossiya yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida ishlagan Sergey Mixalkov bilan nihoyatda qadrdon edi. 2004-yilda ustozning “U dunyoga, otamga xatlar” qissasi Moskvada chop etilishi va Mixail Sholoxov nomidagi xalqaro adabiy mukofotga sazovor bo‘lishida Sergey Mixalkovning hissasi borligidan xabardormiz.

To‘lepbergen Qaipbergenov zabardast romannavis, atoqli dramaturg, jamoat arbobi bo‘lish barobarida beqiyos publitsist ham edi. 1984-yili harbiy xizmatni o‘tayotgan chog‘imda “Правда” gazetasida u kishining “Река должна впадат в море” (“Daryo dengizga quyilishi kerak”) maqolasini o‘qidim. Keyinroq, 1985-yilning kuzida o‘sha gazetada To‘lepbergen og‘aning o‘nlab qarovsiz qolgan insonlarga o‘z qo‘li bilan uy qurib bergan qoraqalpog‘istonlik zahmatkash va fidoyi muallim Allaniyoz O‘teniyozov to‘g‘risidagi “Лик доброти” (“Ezgulik jamoli”) sarlavhali maqolasi ham e’lon qilindi. Uni o‘qigan Kuba davlati rahbari Fidel Kastro va o‘nlab mashhur olimlar, san’atkorlar Allaniyoz muallimga xat yozdilar. Istiqloldan keyin adib ham, Allaniyoz og‘a ham “O‘zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lishdi. Ha, ustozimiz chin ma’noda qahramon edi. Buni 1989-yilning 30-may kuni adibning Kremlning hashamatli saroyida turib Sovet mamlakati rahbarining yuziga aytgan qalampirday achchiq gaplarini “oynai jahon” orqali eshitgan millionlab insonlar yaxshi biladi.

Tavallud sanasiga shu kunlarda 95 yil to‘lgan To‘lepbergen ustoz oqil inson edi. U kishi ham xuddi Gabriel Garsia Markes, Rasul Hamzatov, Muxtor Avezov, Chingiz Aytmatov, G‘afur G‘ulomdek butun sayyoraga daxldor adib edi. Shunday bo‘lib qolaveradi!

Yangiboy QO‘CHQOROV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

TADBIR

KITOBXONLIK BAYRAMI

Shunday tadbirlar bo‘ladiki, ular nafaqat bugungi kun, balki kelajak uchun ham samarali xizmat qiladi. Hech kimga sir emas, so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan kitobxonlik va kutubxonalar faoliyatini rivojlantirishga oid beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. Zotan, kitobsevar insondan yomonlik chiqmaydi va u jamiyatga ham ko‘p foyda keltiradi. Mamlakat salohiyatini yuksaltirish aynan dono va bilimdon insonlar qo‘lida ekani hech kimga sir emas.

Bir necha yildan buyon har yili aprel oyida yurtimiz bo‘ylab “Kitobxonlik haftaligi” o‘tkazib kelinayotgani ham amalda yaxshi natija bermoqda. Ushbu tadbir aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak namunada chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlar nashr etilishini qo‘llab-quvvatlash kabi ezgu maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, haftalik davomida yangi badiiy asarlar yaratish, jahon adabiyoti sara namunalarining ona tilimizga tarjima qilinishi masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Haftalik doirasida kitob savdosiga tegishli tartib-qoidalarni soddalashtirish, nashr etilgan kitoblarni o‘quvchilarga yetkazish, axborot-kutubxona markazlarini yangi kitoblar va ularning elektron nusxalari bilan muntazam to‘ldirib borish masalalari ham muhokama qilinib, qiziqarli taklif va g‘oyalar o‘rtaga tashlanmoqda. Shuningdek, jamiyatda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachilarning bilimi va malakasini oshirish kabi masalalar ham e’tibordan chetda qolmayapti.

Joriy yilning 22–26-aprel kunlari Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashabbusi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrida “Kitobsevar millat” shiori ostida o‘tkazilgan IV respublika “Kitobxonlik haftaligi” ham aynan ana shu jihatlari bilan esda qolarli bo‘ldi. Uning doirasida yurtimizda kitob savdo yarmarkalari, yangi chop etilgan asarlar taqdimoti, taniqli ijodkorlar bilan uchrashuvlar, ular ishtirokida “mahorat darslari”, davra suhbatlari hamda tanlov va aksiyalar, madaniy dasturlar tashkil qilindi. Bu borada O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston noshirlari va kitob savdosi tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda mahalliy hokimliklar yaqindan ko‘mak berganini ham alohida ta’kidlash lozim. Muhimi, kitobxonlik haftaligining maktab, litsey kabi ta’lim muassasalarida ham o‘tkazilishi amalda yaxshi natijalar bermoqda. Demak, odamlarning kitobga, mutolaaga qiziqishini oshirishga xizmat qiladigan bunday tadbirlarni qancha ko‘p o‘tkazsak, natijasi ham yuqori bo‘ladi.

Umida TESHABOYEVA,
O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

BU KITOBNI O‘QIDINGIZMI?

XOTIRA UYG‘ONSA GO‘ZAL

Yaqinda Urganch shahrida filologiya fanlari nomzodi Sayyora Samandar va tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Umid Bekmuhammad hammuallifligida “Xorazm jadidlari: islohotlar, ta’lim va adabiyot” monografiyasining nashr qilinganini o‘zbek jadidshunoslarining navbatdagi yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Ma’lumki, Ismoil G‘asprali tomonidan asos solingan va “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori bilan chinakam ma’noda yangi Renessans fenomenini yuzaga keltirgan ushbu ma’rifatparvarlik harakati turkiy xalqlar tarixining yorqin sahifalarini tashkil qiladi.

Mazkur harakat faoliyatiga teran nazar solsak, jadidlik turkiy musulmon xalqlar tarixida haqiqatan ham noyob hodisa ekaniga amin bo‘lamiz. Negaki, istiqbolli strategik g‘oyaga ega, amaliy faoliyat bobida dadil va shiddatli bo‘lgan bunday fidoyilar hamma davrlarda ham paydo bo‘lavermaydi.

Monografiyada Qrimda yuzaga kelgan jadidlik harakatining turkiy musulmon xalqlari tarixi va taqdirida tutgan o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, unda “Tarjimon” gazetasida 1883-1916-yillarda Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida chop etilgan 158 ta maqolani chuqurroq o‘rganish zarurligiga e’tibor qaratilib, ushbu zaminda kechgan ma’rifatparvarlik harakatining o‘ziga xos xususiyatlari, jamiyat rivoji va oddiy insonlar hayotiga ta’siri tadqiq etiladi.

Xiva xonligida bosh vazir lavozimida xizmat qilgan Islomxo‘ja tomonidan amalga oshirilgan islohotlar o‘sha davr jamiyati uchun katta yangilik bo‘lgan edi. Monografiyada Feruzxon, Asfandiyorxon kabi hukmdorlarning jadidlarga xayrixohlik bilan qarab, o‘zlari ham yangi maktablar ochishgani hamda ularga Qozon va Orenburg shaharlaridan o‘qituvchilar taklif qilishganiga oid qiziqarli tarixiy faktlar qalamga olingan.

Asarda Xorazmda jadidlar tashkil qilgan maktablar, ulardagi o‘qitish usuli hamda dastlabki jadid muallimlari to‘g‘risida ham ilk bor aniq manbalar asosida hikoya qilinganini ham qayd etish o‘rinlidir.

Bundan tashqari, mualliflar o‘lka jadidlarining adabiy merosini yangicha ruhda tahlil qilish borasida ham muayyan yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, taniqli ma’rifatparvar Bobooxun Salimovning ijodiy faoliyati, mashhur shoir Avaz O‘tar hayoti va ijodining jadidlarga bog‘liq jihatlari ishonarli dalillar, yangicha qarashlar asosida yoritilgani e’tiborga loyiq. Monografiyada Muhammadsharif So‘fizoda va Hamza Hakimzodaning Xorazm zaminida kechgan hayoti va faoliyati o‘lkadagi jadid adabiy muhiti bilan uyg‘un holda tahlil etilgani ham mantiqan o‘rinlidir.

Shu o‘rinda zahmatkash olimlar tomonidan Avaz O‘tarning “Til”, “Maktab” va “Hurriyat” kabi ma’rifat g‘oyasi bilan sug‘orilgan she’rlari yangicha talqinda tahlil qilingani kaminaga ancha manzur bo‘ldi. Tarixdan ma’lum, Avaz O‘tar sil xastaligiga chalingach, 1905-1906-yillarda davolanish uchun Kavkaz va Qrimga borgan. O‘sha safari asnosida Bokuda ozarbayjon jadid maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Monografiyada ham Avaz O‘tarning Tohirzoda Sobir (1860-1911) singari Ozarbayjon shoirlari bilan uchrashib, do‘stlashgani va keyinchalik ham ular bilan ijodiy aloqada bo‘lgani aks ettirilgan. Qolaversa, Avaz O‘tarning Ozarbayjonda Sulton Majid G‘anizoda (1886-1937) tashkil qilgan maktablarni ko‘zdan kechirgani, Safarali Valibeyov (1861-1902) ning “Vatan tili”, “Usuli jadid”, “Lisoni forsiy” nomli asarlari hamda “Xazinayi axbor” deb nomlangan ikki jildlik qomusiy lug‘atni Xorazmga olib kelgani, farzandini Mamat mahramning jadid maktabiga o‘qishga berganiga oid tarixiy faktlar ham har qanday o‘quvchini qiziqtirishi shubhasiz.

Monografiyada 1913-1918-yillarda Turkiyaning Istanbul universitetida tahsil olgan xorazmlik Bekjon Rahmonning hayoti va faoliyati ham keng yoritilgan. Zotan, o‘sha kezlarda Boku shahrida o‘tkazilgan Sharq xalqlari qurultoyi va xalqaro turkshunoslik anjumanida ishtirok etgan ozarbayjonlik taniqli davlat arbobi Samad og‘a Ag‘amali bilan yaqin do‘st bo‘lgan bu fidoyi inson o‘zbek ma’rifatparvarlik harakati tarixida o‘zidan munosib iz qoldirgan.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu monografiyani Xorazm jadidlik harakatiga bag‘ishlangan dastlabki keng qamrovli fundamental ilmiy tadqiqot sifatida e’tirof etish mumkin. Bunday asarlar boshqa turkiy davlatlar, jumladan, Ozarbayjon ilmiy jamoatchiligi uchun ham foydalidir. Kaminaning shu yil 1-may kuni Ozarbayjondagi AZERTAG axborot agentligi orqali e’lon qilingan “Ozarbayjon ma’rifatparvarlarining Xorazm jadidlari bilan hamkorligi tarixiga bag‘ishlangan monografiya” sarlavhali maqolada masalaning mana shu jihatlariga ham alohida ahamiyat qaratilgan.

To‘g‘risi, o‘zbek hamkasblarimizning ushbu monografiyasi bilan tanishish jarayonida xorazmlik zukko munaqqid va shoir Bahodir Sodiqning “Xotira uyg‘onsa go‘zal”, degan go‘zal satri yodimga tushdi. Ha, xotira uyg‘onsa go‘zaldir. Shu ma’noda, ushbu monografiya orqali xorazmlik fidoyi jadidlarning porloq xotirasini uyg‘otmoq, ularning ibratli ishlarini bugungi va kelajak avlod vakillariga yaqindan tanishtirishning ahamiyatini hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Izlanuvchan mualliflar shu kunlarda yana bir nechta ilmiy loyihalar ustida birgalikda ishlayotganidan xabarim bor. Bunday ezgu va savobli yo‘lda ularga omad va muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Almaz ULVI,
filologiya fanlari doktori, professor.
Ozarbayjon

YANGI TARJIMA

ABSURDGA QARSHI ISYON



Kafka kitobining taqdimoti – milliy ma’naviyatimizdagi voqeadir. Biz yaqindagina Jaloliddin Rumiy “Masnaviy”si tarjimasi nashr etilganda shunday hayajonni boshdan kechirgan edik.

Avvalo Kafka va “Qal’a” haqida... Kafka qattiq isitma, bezgak ichida yozgandek tuyulaveradi menga. Bu uning migren bilan og‘riganidan miyamda tug‘ilgan paralleldir ehtimol. Lekin ilhom ham aslida, qattiq isitmaga, talvasaga o‘xshaydi. Demak, Kafka hamma vaqt kuchli ilhom, jazava holatida yozgan bo‘lsa kerak.

“Qal’a” qanday dunyoga kelgan? Nima uchun yozilgan?

Kafka sug‘urta kompaniyasida ishlaydi. Har kun tepadan o‘nlab topshiriqlar keladi, uning bajarilgan-bajarilmagani bilan esa hech kim qiziqmaydi. Xodimlar uzzukun hisobot yozish-u turli qog‘ozlarni to‘ldirish bilan band. Dasta-dasta qog‘ozlar undan bunga – bundan unga oshiriladi. Yarim kunda bajarish mumkin bo‘lgan ishni haftalab sudrashadi va hokazo.

Bu ishlarning hammasi nimaga kerak, foydasi nima – buni topshiriq berayotganlar ham, bajarayotganlar ham bilmaydi. Lekin hamma o‘zini muhim ish bilan shug‘ullanayotgandek tutadi. Mahobatli byurokratiya mashinasi esa millionlar hayotini majaqlagancha tinmay aylanishda davom etadi, etaveradi...

Mana shularning bari Kafkaga bema’nilik bo‘lib tuyulgan. Bular inson hayotini bema’nilikka, absurdga aylantiradi degan xulosaga kelgan.

“Qal’a” byurokratiyaning mudhish mohiyatini eng oliy qadriyat bo‘lgan inson hayotining qadrsizlanishini anglashdan tug‘ilgan. Kafka sug‘urta kompaniyasida ko‘rganlarini shu tariqa romanga aylantirgan.

Aslini olganda bugun ham biz o‘sha absurddan xalos bo‘la olganimiz yo‘q. Ofis hayoti, atay natijasizlikka mahkum etilgan behuda yugur-yugurlar ko‘rinmas dahshati bilan davom etyapti. Mana, jahoniy absurdga bir misol: Z.Freyd XX asr boshida birinchi jahon urushi munosabati bilan shunday yozgan edi: “Urush ichimizdagi “yovuz ruhlar”ni uyg‘otib yubordi – vaholanki, biz ularni asrlar mobaynida ma’rifat va madaniyat (unserer Edelsten) vositasida abadulabadga jilovlab oldik, deb o‘ylagan edik”. Afsuski, odamzod oradan bir asr o‘tib ham o‘zgarmadi. Freydning gapi hamon o‘z kuchida turibdi. Bugunning absurdligi shundaki, xalqaro miqyosdagi muloqotlar, yig‘inlar, o‘zaro tahdidlar, davlat rahbarlarining qo‘ng‘iroqlashuvlari – bularning birortasi tevaragimizdagi mudhish urushlarni to‘xtata olayotgani yo‘q. Dunyo xuddi “Qal’a”dagi singari bir-birini eshitmay qo‘ydi. Masalalar muhokama qilinadi, ajoyib qarorlar qabul qilinadi, odamlar kecha-yu kunduz demay ishlaydi – lekin hayotda hech nima o‘zgarmaydi. “Qal’a”dagidek uyum-uyum qog‘ozlar ichida yashayapmiz...

Xullas, odam o‘z yo‘rig‘ida ketayotgandek tuyulgan hayot voqeligi fojiasini anglamasligi mumkin. Adabiyot o‘shani o‘quvchiga yorqin-aniq ko‘rsatib beradi, uni bizning ko‘zimizdan yashirayotgan kundalik mayda-chuydalardan ajratib-tozalab ro‘para qiladi.

Kafka inson hayotini absurdga aylantirayotgan shunday voqealarni tasvirlaganki, yurak o‘ynab ketadi. Masalan, amaldorga jazman bo‘lishni xohlamagan Amaliyaning oilasidan butun qishloq yuz o‘giradi. Qal’aga qo‘ng‘iroq qilinsa, hech kim javob bermaydi, go‘shakdan shovqin va musiqa eshitiladi, xolos. K. gaplashishi kerak bo‘lgan amaldorlar qolib, ularning oyimchalari bilan muloqot olib boradi. Xastalanib qolgan, qarib-churigan oqsoqol murojaatchilarni to‘shagida cho‘zilib yotgancha qabul qiladi. Kafka sokin dodlaydi: “K. hech qayerda bundagidek xizmat bilan shaxsiy hayot chirmashib ketganligini ko‘rmagan”.

Klammga o‘xshagan nihoyatda mas’uliyatli amaldor nuqul uxlagani uxlagan. Jamiyat boshqaruvidagi amaldorlarni oddiy xalq umuman ko‘rmagan. Qishloqqa tanobchi kerak emas, ammo butun roman shu voqea asosiga quriladi. Ishning tagiga yetguncha o‘ttiz yoshli K.ning butun umri o‘tib ketadi... Xullas, absurd.

Kafkaning asarlari zerikarlidek, kuchli hayajonlantiradigan drama-tragediyalari yo‘qdek tuyuladi. Jumladan, “Qal’a” ham shunday. Buni tarjimon ham “So‘zboshi”da ta’kidlab o‘tgan. Lekin o‘qiyversang, hammasi tanishdek, hammasi yuragingni o‘rtab boraveradi. Ayrim joylarini qayta-qayta mutolaa qilasan. Xullas, tagiga chizib-chizib o‘qiladigan kitob.

Endi asar tarjimasi haqida.

“Qal’a”ning tarjimasi tarixiy voqeadir. Jahon adabiyotini Vafo Fayzullohdek ko‘p va chuqur biladiganlar adabiy jarayonimizda ko‘p emas. Uning tarjimalari o‘zi bir dunyo. Biz adabiyotsevarlar birgina “Jarayon”ning tarjimasi uchun shoirdan behad minnatdormiz.

Bugun esa, mana, “Jarayon”ning davomidek “Qal’a” qo‘limizda turibdi. Roman nihoyatda o‘zbekcha jaranglagan. Mutarjim o‘zbek tilining imkoniyatlarini shunday ishga solganki, tarjimaning faqat tilshunoslik tarafi tadqiq etilsa ham, yaxshigina tadqiqot paydo bo‘ladi deb o‘ylayman.

Roman nihoyatda kuchli ironiya, istehzo bilan yozilgan. Tarjimon kinoya kuchini “Sardiniboy”, “bekaoyim”, “xotincha” kabi o‘zbekcha so‘z shakllari bilan ham beradi.

Bir qarashda arabcha, arxaik so‘zlar tarjimada ko‘pdek tuyuladi. Ammo ular ham aynan Kafkaning kinoyalarini optimal berish uchun qo‘llangan. Masalan, tarjimon kanselyariyaviy byurokratiya dabdabasini “seni graflik mulkidan ixroj qilamiz” degan arxaizm bilan ifoda etadi. “Almisoqdan qolgan, ohori uchib ketayozgan laxtak” deb ta’riflangan graflik bayrog‘ini dabdabali va hech kim tushunmaydigan “a’lam” so‘zi bilan beradi. Xushtori haqidagi xotiralarini eri bilan entikib yillab muhokama qiladigan bekaga Kafkaning istehzosini “aqdi nikohingiz” degan jumlada ifoda etadi. Bu hollarning barida ironiya haddi a’losiga chiqadi.

Vafo Fayzulloh tarjima bahonasida qariyb butunlay unutilayotgan, harakatsizligidan falajlanib qolgan so‘zlarimizga hayot bag‘ishlagan. Mana ular: oytovoq, padari qusir, danbal, po‘la va h.k. Bochka so‘zini esa o‘zbekcha talaffuzda “bo‘chka” deb ishlatadi. Tilimiz uncha kelishmaydigan “noil”ni “noyil” deydi.

Endi tarjimaning boshqa jihatlariga ham to‘xtalsam.

Badiiy asar tarjimasi nozik hodisa. Ba’zi ijodkorlar tarjimani “birovning tomorqasida qora ter to‘kish” deb biladi va qo‘l urmaydi. Ba’zilar shaxsiy manfaat uchun ishlaydi, o‘girmaning ketidan shon-shuhratmi, to‘rt tanga topishnimi ko‘zlaydi. Buning ham hech bir yomon jihati yo‘g‘-u, ammo gap sifatda.

Lekin bir toifa bor – rosmana majnun ijodkorlar. Ular o‘zi o‘qib maza qilgan asardan boshqalar ham bahra olsin, deydi. Alisher Navoiy ham “Layli va Majnun”ni shu maqsadda yozdim, deydilar. Ko‘p yaxshi qissalar forscha edi, turkiylar uni o‘qib bahra ololmasdi, “Men turkcha boshlabon rivoyat, Qildim bu fasonani hikoyat. Kim, shuhrati chun jahong‘a to‘lg‘ay, Turk eliga dog‘i bahra bo‘lg‘ay”, deydilar.

Yana shuki, o‘sha “majnun”lar tarjima orqali dardlarini ham aytib oladi.

Ba’zan adib hech narsa yozmay, qalamiga tosh bog‘lab suv tubiga otishi mumkin – bu ham aslida san’atkorning o‘ziga xos so‘zi, voqelikka munosabatidir. Tarjima ham shunday deb o‘ylayman – hammasini ko‘rib turib, ayta olmayotgan ijodkorning iztirobidir. Fikrlayotgan odamning dunyoga aytayotgan so‘zi, ijodkorning majoz usullaridan biridir.

Vafo Fayzulloh o‘zi bahra olgan asardan o‘zgalar ham bahra olishini istagan, hech bir manfaat kutmay, tarjima orqali fikrlayotgan ijodkordir.

“Qal’a” – tarjimonning hissiyotlari yovuzlashgan dunyoga munosabati. Bu tarjima Shoirning inson hayotini absurdga aylantirayotganlarga qarshi raddiyasidir. Asarni Vafo Fayzullohning olam, jamiyat, odamlar, ijtimoiy tuzilmalarga oid nuqtai nazari deb qabul qildim.

Yana bir fikrim bor: adabiyotshunoslik ilmi bugun professional va noprofessional tarjimani, tarjimonni ajratib olishi kerak. Shunday tarjimalar borki, mahoratni u yoqqa olib qo‘ya turaylik, hatto ayrim gaplarning ma’nosiga tushunib bo‘lmaydi. “Tarjimon” tilni his qilish u yoqda tursin, ega-kesimini joyiga qo‘yib gap tuzolmaydi... Ha, mayli. “Qal’a”ning tarjimoni Abdulla Qahhor, Qodir Mirmuhammedov, Alibek Rustamiy, Ibrohim G‘afurov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon, Odil Ikrom kabi oliy darajali mutarjimlardan. Ular dunyo adiblarini g‘irt o‘zbekcha gapirtirganlar va gapirtiryaptilar.

Tugallanmagan bir asarni tarjima qilishning o‘zi ajablanarli. Bu ishga qo‘l urilibdimi, demak, u shu holicha ham muhim asar. Sirasi, muallifi yozib tugatgan asarlar ham buncha e’tiborga sazovor bo‘lmagan.

Kafka do‘sti Maks Brodga asarning qanday yakunlanishi haqida aytgan. Unga ko‘ra, K. umri oxirigacha qishloqda qoladi. So‘nggi nafasini olar ekan, qishloqda yashash va ishlashga ruxsat beriladi... Lekin Kafka asarni tugatmay tashlab qo‘ygan. Bunga ham qandaydir sabab bo‘lsa kerak-da. Ehtimol, o‘zi o‘ylagan yakun Kafkaning o‘ziga yoqmagandir. Shundan kelib chiqib, asar nihoyasiga yetkazilganda ham yakun bo‘lmasdi – baribir uzilib qolaverardi. Bu – Kafkaning odamzod o‘zi o‘ylab topgan byurokratiya tug‘dirgan absurdning tugamasligiga ishorasi bo‘lardi.

Darvoqe, asarni har birimiz o‘zimiz tasavvurimizda davom ettirishimiz mumkin. Xo‘sh, agar asarni Vafo Fayzullohning o‘zi davom ettirsa, u qanday yakun topardi? Adabiyotga shunday tajribalar ham kerakdir? Xuddi, Xurshid Do‘stmuhammadning “Donishmand Sizif”i kabi tajribalar...

Gapimning oxirida aytmoqchi bo‘lganim shuki, “Qal’a” – Kafkaning Sizif toshidek uzluksiz aylanaveradigan absurdga qarshi isyoni bo‘lgan. Uni mutolaa qilish, umuman, mutolaa – kundalik absurdga qarshi isyondir.

Bu isyon barchamizning qalbimizda avj olmog‘ini tilar edim...

Nodira AFOQOVA

TABDIL


“KO‘MAK”CHILARDAN XOTIRA

Germaniyaga buyuk umidlar bilan tahsil olish uchun borgan talabalar tomonidan 1923-yilning birinchi sentyabrida o‘zbek tilida eski o‘zbek yozuvida ilmiy, adabiy, ijtimoiy “Ko‘mak” nomli jurnal nashr qilinadi. Jurnal manzili “Berlin-Shoneberg, Stubenrausshtrasse” 4-uyda joylashgan bo‘lib, “Ozod Sharq” bosmaxonasida chop etiladi. Unga Sayid Ali Xo‘ja mas’ul muharrirlik qiladi. Jurnal o‘ziga “Bilim Ovro‘padadir!” degan gapni shior qilib oladi. Uning mundarijasidan talabalar tomonidan yozilgan ilmiy, ijtimoiy maqolalar, bir qancha she’rlar o‘rin olgan. Ehtirom ramzi o‘laroq talabalar jurnalda Cho‘lponning “Ketganingda” she’rini ham berishadi.

“Ko‘mak”da Ahmad Shukriy, Sayid Ali Xo‘ja yozgan asarlari bilan qatnashadi. Jami 28 sahifadan iborat bu jurnalning keyingi sonlari chiqmaydi. Berlindagi talabalardan yagona yodgorlik bo‘lgan bu jurnaldagi manbalarning o‘zi ham ularning qalbini, orzu-intilish va dunyoqarashini tasavvur qilishga yordam beradi.

Ovro‘paga borib chuqur bilim olish va yurtiga qaytib Vatanga xizmatni niyat qilgan bu talabalar jadidlar edi. Ular Turkiston turmush tarzini, insonlar fikrini yangilashga, o‘zgartirishga bel bog‘lagan edilar. Taassufki, ularning orzulari armonga aylandi. Bu achchiq tarix, bu talabalarning qismati. Muhtaram “Jadid” o‘quvchilariga “Ko‘mak”dan olingan ayrim manbalarni taqdim etamiz.

B.Muhammad NUR


بلم آور و پاده‌در!

اوز یکجه علمی، ادبی، اجتماعی، جوگ

کومك

ایچنده گیلر:

Izoh: Suratda “Ko‘mak” jurnalining muqovasi

Tilagimiz

Yoruqliqg‘a sevinib, imtilib chiqayotg‘an Turkiston shuncha ilmiy kishisizligiga qaramasdan kelgusining buyuk umidlari uchun bizni Ovro‘poga yubordi. Chindan-da, Turkiston chalalikni istamadi. Butunlikni istadi. Juda yaxshi qildi. Biz ammo Ovro‘poda yillarcha qolib o‘qug‘on zamonimizda sevikli Turkistonimizga xizmat qiluvdan mahrum bo‘lub qoluvni istamaymiz. Shu yerda turg‘on chog‘imizda ham bu to‘g‘rida tushunamiz. Buning uchun kuchimiz yetkancha tirishamiz. Buni biz o‘ylab chiqarmadik. Har bir millatning oliy maktab bolalari qayerda bo‘lsa bo‘lsunlar, ilmiy-ijtimoiy yo‘llarda o‘z millatlari uchun cholishadirlar. O‘quv bilangina qolmaydirlar. Bizim ishimiz kelgusida ilmiy ishdir. Shuning uchun hozirdan qo‘limizdan kelgancha chala bo‘lsa-da, kichik bo‘lsa-da, arzimas bo‘lsa-da, qilamiz. Uzoqlarg‘a buyuk umidlar bilan yuborg‘on Turkistonimizga bu harakatimiz ko‘kragimizda yotg‘on xizmat tuyg‘ularini ko‘rsatar umididamiz.

Sulaymonga chumoli chovutka oyog‘ini tortuq kelturganidek biz-da shu kichik jo‘ngni **(jurnal ma’nosida – tah.)** ulus oyog‘larig‘a to‘shantiramiz. Deymiz, bizning qo‘limizdan kelgani hozir shu bo‘ldi, yararliq bo‘lmasa-da, o‘z bolalaringizniki. Oling, buzuqlarin tuzating, kamchiliklarini to‘ldiring, ko‘maklashing.

“Ko‘mak” tahririyati



Germaniyada tahsil olgan turkistonlik talabalar.

TEXNIKA VA BIZ

Texnika – inson tabiatda uchratdigi, topdig‘i quvvat va moddalardan elning ehtiyoj va hojatini o‘tash, turmushni yengillatish uchun riyoziyot, tabiiyot, mexanika fanlarini negiz tutub yasalg‘on, qurilg‘on, ishlangan narsalar, asboblar ham ishlash yo‘sunlarini to‘piga aytiladi.

Kishi dunyog‘a kuchsiz zaif bir holda kelgan. O‘zining to‘garagida minut sayin yutorday dahshat berib turg‘on tabiat va turli dushmanlaridan qondan saqlanish kira kelgan tushungan chorasini oxtara boshlag‘on. Kishi bu hollar ichinda ko‘b dovdiramag‘on. Aqli, fikri soyasinda tegrasindagi topdig‘i toshlardan o‘zining ehtiyojig‘a to‘g‘rilab, hozirg‘i bizning ishlatdigimiz asbob qurollari o‘rnig‘a ishlatish majburiyatida bo‘lg‘on. Mana bu kishining birinchi texnikaga boshlab kirishidir. Buning vositasi bilan dushmanlar orasinda yashab o‘z urug‘ini ko‘payta va yoya olg‘on.

Zamonning o‘tishi bilan ehtiyojning zo‘rayishi orqasida burung‘i qurollar yaroqsiz va yaramas bir holg‘a kelganlar. Kishi bu yaroqsiz narsalar bilan tabiatdagi buyuk tortishish kurashida yenglishini angladi. Ularning yeriga ma’danlardan mukammalroq qurollar yasash darajasiga yetishdi. Tabiatda to‘g‘ri ketirdigi quvvat va moddalarni o‘z istagiga bo‘yin egdirdi. Bularning vositasi bilan sodda qurollar to‘la va mukammaltirildi.

Kishining o‘tkir aqli, o‘rinli fikrlari, charchamas vujudi soyasida texnika tadrijiy suratda olg‘a bosdi. Ayniqsa, hozirg‘i vaqtda Ovro‘po, Amriqoda texnika shunday yuksalgankim, bizning tamonlilarni cheksiz hayratda qoldirarliqdir. Ikki tomoni daraxtlar bilan bezanib yashnagan, keng ozod ko‘chalari, ichiga kirganda o‘chmox sezgilarini beradirgan park, bog‘lari, sog‘liq saqlash o‘yin maydonlari, yo‘sunli, savlatli ko‘rinishda maktablar, dorilfununlar, teatrlar, kutub va qiroatxonalar, muzeylar, binolar, ulardagi kishining ehtiyoji uchun hozirlang‘on narsalar ular soyasida kelgan natijalar elning tirishishini, yashashini, bilimini oshirib tirikchilikni madaniy yo‘lga qo‘yg‘ondir. Tog‘ kabi fabrik-zavodlarda ishlanib chiqarib turg‘on turli mashinalar kishining ustidagi yuklarni oldi. Uzilish va qiynalishdan qutqardi. Bular orqali mayda hunar ishlari yuksaldi. Ko‘k sari kerilib turg‘on yuksak tog‘lar bag‘ridagi qiymatli narsalar osonliq bilan olindi. U qayonlarda javlon otib turg‘on paraxo‘dlar, yer osti, yer yuzi, yer tepasi elektrik va o‘t arabalari va uchg‘uchilar butun yer yuzindagi ellarni bir-birlari bilan aloqada bo‘lishg‘a ham olish-berish ishlarini yuksalishiga sabab bo‘ldi. Suv va ziroat mashinalari sahrolarni bog‘larg‘a aylantirdi. Dehqonchiliq ishlari yuksaldi. Yuqoridag‘i sayg‘onlarimiz Ovro‘po, Amriqoda tirikchilik yo‘llarini ochg‘on texnika orqasinda borliqg‘a chiqazildi. Bu unumli natijalar kun botish elini dunyoda yashashg‘a qiziqtirdi. Shuning uchun bu yo‘lda belni mahkamlab tinmasdan tirishmakdadir.

Endi biz bir aylanib o‘zimizga va bizning texnikamizga qarasaq, yuragimizni ezarlik bir holda bulg‘onilg‘on ko‘ramiz. Madaniy uluslarning yuksalishiga sababchilardan bo‘lg‘on injenerlar, do‘qturlar, agronomlar, turli oliy ma’lumotli ish kishilari va mayda qo‘l hunar ustalari bizda yo‘qdir. Mana bunlarning natijasida yurtimiz noobod, elimiz yo‘qsuldir.

Turkiston eli unumli tuproqlar, turli ma’danli tog‘lar, qiymatli o‘simliklar, oltun barobarida turadirgan hayvonlar va boshqa turli tabiiy boyliqlar bilan birga har turli deyarlik hunarlarga egadir. Netakim: to‘quvchiliq, kunchilik, gilamchilik, ma’danchilik, ipakchilik va boshqalar. Lekin bunlarning hammasi yo‘sunsiz bir yo‘lda ishlanadirlar. Tabiiy boyliqlarni yo‘lga qo‘yish, hunarlarni yuksaltish, zamon – qoliplarig‘a solish harakatlari bizda yo‘qdir. Hunarchilarimizning ishlagan ishlari, chiqozg‘on mollari mamlakatni boyitish narida tursun, boyoqish egalarini qursoqlarini-da to‘yg‘uza olmaydir. Shul sababli ko‘b hunarchilarimiz ishlarini yig‘ishtirib chet kishilar fabrik, zavodlarida qorashchilik xizmatini o‘tashga majbur bo‘lg‘on edilar. Rusiyada ishlab chiqozish ishini tubang‘a ketishi, chetdan narsalar keltirish yo‘qlig‘i qo‘l hunarchilarimizni yana bir oz qimirlatdi.

Elimiz orasida bu kungacha ishlaganimiz elning ruhini ko‘tarmadi. Uni rozi etmadi. Ozg‘ina bo‘lsa-da madaniyatga moyil etdira olmadi. Buning sababi ish kishilarimizning yo‘qlig‘ida deyman. Qanday ishni boshlasaq, qilsaq undan el ko‘ziga bir natijalik narsa ko‘rsata olmadiq. To‘g‘risi, ishlab chiqara olmadiq. Ko‘b joylarda teatur va maktab binolari solmoq uchun aqcha to‘planadir-da o‘zimizda injener – arxituketurlar va boshqa ish kishilari yo‘qlig‘idan yig‘ilg‘on pullar bo‘lmagur narsalarga sarf bo‘lub ketadir. Bu kabi unumsiz ishlarimiz sanoqsiz.

Bizning Turkiston xalqi prakatichini – amaliyotchi xalqdir. Ko‘b so‘z bosh og‘ritar, quruq so‘z quloqqa yoqmas, deb turg‘on el qarshisinda qancha unumsiz ishlar ishlashib yana maddohliqda davom etsak, el shuncha bizdan, madaniyatdan nari qochar.

Shuning uchun bizning Turkistonga Ovro‘po texnikasi bilan qurollang‘on kishilarni yetqizish lozimdir. Mana bunlar vositasi bilangina ishlangan ishlarni, tabiiy boshliqlarni yo‘lga qo‘yulg‘onin, hunarlarni yuksalganin el – o‘z ko‘zi oldida ko‘rgach anglar, tushunar. Madaniyat sari o‘zindan o‘zi oyoq bosar. Ovro‘poning texnika, hunarlarinda oldinda bo‘lg‘on Germaniyag‘a bultur Buxoro va Turkistondan talabalar keldi. Bularning hammasi deyarlik oliy texnika, ziroat va hunar maktablariga kirdilar. Turkiston, Buxoro, Xivada Ovro‘pog‘a yil sayin o‘qug‘uvchilar yuborib turish harakati borlig‘in ko‘ramiz. Mana bular yaqin bir orada yurtimizning unumli sahifasini ochilishig‘a umid va imon ketirtiradir.

A.A.

TURK ADABIYOTIDA IDEALIZM VA REALIZM

Ba’zi Ovro‘po tekshiruvchilar turk qavmlarida injalik sezgulari yo‘q bo‘lub, unlarning tab’larida nuqulgina qiruvchiliq, yovoyiliq bo‘lg‘onlig‘in da’vo etar edilar. Yigirmanchi asrda turk qavmlarining adabiyot dunyosida o‘z borliqlarini ko‘rsatuvlari bu fikrning yanglish ekanligin sezdiradir.

Adabiyot bilag‘onlari: “bir millatning adabiyoti u millatning ruhini ko‘rsataturgan oyinasidir”, deyurlar.

Yangi asr o‘zgarish to‘lqunlar soyasinda turk qavmlarida adabiy asarlar yozila, yangi adabiy oqim va maslaklar tug‘ula boshladi. G‘arb, sharq va shimol turklari shevalarida yangi adabiyot vujudga keldi. Turkiyada buyuk adabiy chehralar tug‘uldi.


Cheksiz kengayib ketmakda bo‘lg‘on turk qavmlari adabiyot bog‘chalarini kezib chiquv uzoq zamon va ko‘b kuchlar istaydir. Shunday bo‘lsa-da, adabiy maslaklarni tanurg‘a namuna bo‘larliq asarlarni ko‘rsatib o‘tuv mumkindir. Hozirgi asr adabiyot olamida idealizm (g‘oyachiliq) va realizm (haqiqatchiliq) maslaklari katta ro‘l o‘ynaydir. Ko‘bdan ko‘b bir adabiy asar falsafiy yoxud ijtimoiy yoqdan tekshirilaturgan bo‘lsa, mana shu ikki maslak ko‘zgalarini taqib u asarga qaramoqg‘a to‘g‘ri keladir.

Qafqaziyali Husayn Jovid afandining usmonlicha yozilg‘on “Shayx Sa’non” bilan Fitrat afandining chig‘atoy shevasida yozilg‘on “Hind iktilolchilari” fojiasi idealizm va realizm yo‘llari bilan yozilg‘on asarlardir.

Husayn Jovid afandi mislsiz idealist bo‘lg‘ani kabi Fitrat afandi ulug‘ realistdir. Jovid afandi dramasining qahramoni Shayx Sa’non Arabistondan Qafqaziyaga kelganida ishqqa tutiladir-da, yillarcha cho‘chqa boqadir. So‘ngra ma’shuqasi Xumor bilan tog‘lar orasida sevgi yo‘lida jon beradur. Hind ixtilolchilarining qahramoni esa vatani ko‘yida o‘zgaruvchilikni qabul etub Gangar tog‘ida mag‘oralar ichida yashab vatan yovlarig‘a qarshi urushadir, so‘g‘ishadir. Hozirg‘acha o‘qudig‘im dramalar orasida shu ikki munavvar asarga tenglarlik asar yo‘liqmadi. Balkim o‘qug‘onlar bordir. Choqishtirub ko‘rsinlar-chi!

Ahmad SHUKURIY

Cho‘lpon o‘ng qulog‘imga kirdikcha ko‘zimga Shekspir ruhi ko‘rinadir-da turadir. Shekspir lirizimasi bilan Cho‘lpon she’riyati orasida naqadar ayirma axtarsam-da, ani topolmadim. “Uyg‘onish”ni necha tobqirlar o‘qub chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim.



CHO‘LPON CHO‘LPONDIR

Eng so‘ng: “Shekspir Cho‘lpondir yoxud Cho‘lpon Shekspirdir...” fikriga keldim. Cho‘lpon she’rlari Shekspir jo‘shqunlug‘i bilan to‘ladir. Cho‘lpon oq ko‘ngilligi Shekspir samimiylig‘idan o‘tadir. Cho‘lpon bizda sevgi tangrisi, sezgu yaratuvchisidir. Cho‘lpon lirik, Cho‘lpon shoirdir. Cho‘lpon cho‘lpondir.

A.SH.

“Ko‘mak”dan olingan manbalarni S.Karimova, B.Nurmuhammad tayyorladi.

XOTIRA AZIZ

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Jo‘raboyev Oxundada – 1898-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda Xonarbod tayyorlov punkti mudiri bo‘lgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Xotin-qizlar ozodligiga qarshilik ko‘rsatishda, jismonan kuch qo‘llaganlikda ayblangan. Hukumat a’zolarini haqorat qilib, xalq dushmanlarini maqtagani uchun hibsga olingan.

Ermuhammedov Sodiqjon – 1892-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Aksilinqilobiy faoliyati uchun 1932-yili 5 yil qamoq jazosiga hukm qilingan.

“Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. O‘zSSR IIXK Namangan shahar bo‘limining 3416-ishi bo‘yicha ayblanlangan. Yashirin muhokamalarida faol qatnashib, sovet hokimiyatiga qarshi kurashgani uchun otuvga hukm qilingan.

QATAG‘ON QURBONLARI

Murtarxonov Isaxon – 1879-yili Chust shahrida tug‘ilgan. Hibsga olingan vaqtda artel a’zosi bo‘lgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotining faol a’zosi sifatida aholi orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan. Monarxik tuzumni maqtab, sovet hukumatiga qarshi kurashganlikda, fuqarolarni xorijga chiqib ketishga targ‘ib qilganlikda ayblangan. O‘zSSR IIXK Namangan shahar bo‘limining 12568-sonli ishi bo‘yicha 10 yil muddatga mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Yo‘ldoshqoriyev Abdullajon – 1884-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Namangan shahar dumasi va Qo‘qon muxtoriyati a’zosi. Hibsga olingan vaqtda qishloq matlubot jamiyati ombor mudiri bo‘lgan. “Sho‘royi Islom” va “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotlari bilan aloqadorlikda, Matlubot kooperatsiyasida kolxozchilar noroziligini keltirib chiqarish uchun ongli ravishda non ta’minotini kamaytirib, qo‘poruvchilik, zararkunandalik ishlarini olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR IIXK Namangan shahar bo‘limining 3365-sonli ishi bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddat 1937-yil 12-oktyabrdan hisoblangan.

Qodirov Nasriddin – 1886-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Shahar dumasining sobiq a’zosi, “Sho‘royi Islomiya” aksilinqilobiy tashkilotining kotibi sifatida qamoqqa olingan. Hibsga olingan vaqtda u ishsiz bo‘lgan. Maktabda o‘qituvchilik qilgan yillari aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik qarashlarni tarqatib, aksilinqilobiy, taslimchilik targ‘ibotini olib borganlikda ayblangan. 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 4-oktyabrdan hisoblangan.

Nuriddin Qoriyev – 1889-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1931-yili 8 yil qamoqqa hukm etilgan. Hibsga olingan paytda Ashxobod shahrida davlat bankida iqtisodchi bo‘lib xizmat qilgan. “O‘n sakkizlar guruhi”, “Milliy ittihod” va “Nashri maorif” aksilinqilobiy tashkilotlari a’zosi sifatida aholi orasida muttasil aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda va a’zolar yollaganlikda ayblangan.

Rahmonov Toji – 1882-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1932-yili “Milliy ittihod”, “Jamiyati islomiya” va “Nashri maorif” aksilinqilobiy tashkilotlarining a’zosi sifatida javobgarlikka tortilgan. Qamoqqa olingan vaqtida himoyachilar kollegiyasi a’zosi bo‘lgan. Yashirin yig‘inlar muhokamalarida, mag‘lubiyatchilik targ‘ibotida ishtirok etganlik va aksilinqilobiy tashkilotlarga a’zolar yollaganlikda ayblanib, 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. Muddat 1937-yil 29-avgustdan hisoblangan.

Usmonov Fayzulla – 1888-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. 1931-yili 5 yil qamoqqa hukm etilgan. Quruvchi bo‘lgan. “Jamiyat Islomiya” va “Milliy ittihod” tashkilotlari a’zosi sifatida nolegal yig‘inlarda ishtirok etib, aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi, 1-bandi va 67-moddasi bilan 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 29-avgustdan hisoblangan.

Rahmonov Xojiakbar – 1893-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi. Chor armiyasida praporshik bo‘lgani uchun qamoqqa olingan. O‘zbek birlashuvining Namangandagi bo‘limida ishlagan. Dushman tomonidan tinch aholining otilishiga guvoh bo‘lgani, aholi orasida aksilinqilobiy ruhida targ‘ibot olib borgani, aksilinqilobchilarning nolegal yig‘ilishlarida qatnashgani uchun 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Muddat 1937-yil 29-sentyabrdan hisoblangan.

Sulaymonov Shavkat – 1899-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining sobiq a’zosi, bosmachilik to‘dalari tashkilotchisi sifatida Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli kurash olib borganlikda ayblangan. Mashg‘uloti noaniq. O‘zSSR IIXK Buxoro sektorining 5573-sonli ish bo‘yicha 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddat 1937-yil 16-sentyabrdan hisoblangan.

Mo‘minov Po‘lat – 1900-yili Buxoro rayoni Azizobod qishlog‘ida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi sifatida O‘zSSR IIXK Buxoro sektori 11762-sonli ish bo‘yicha ayblangan. Hibsga olingunga qadar rayon yer bo‘limi boshlig‘i, Qiziltepa rayonidagi Iskandarov rahbarligidagi aksilinqilobiy guruh a’zosi bo‘lgan. Aksilinqilobiy tashkilot a’zolarini qo‘riqlash masalalari muhokamasida yashirin ishtirok etib, kolxozlarda ishni izdan chiqarganlikda ayblangan va 10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. Muddat 1937-yil 27-sentyabrdan hisoblangan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor,
Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim

(Davomi kelgusi sonda).

HANGOMA

ADABIYOT OTAMDAN KUCHLI

Otamni taniysiz. Bir paytlar “O‘lka rivoji” (nom ijtimoiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan o‘zgartirildi) partiyasida targ‘ibotchi bo‘lib dong taratganidan mahalla-ko‘yda Farhod firqa nomi bilan ardoqlanib kelinadi. Ko‘p yillik tajriba tufayli otamiz oilamizni ham firqa yacheykasiga aylantirib, partokratlarga xos byurokratik intizom o‘rnatganki, u kishining aytgani aytgan, degani degan. Har qanday oilaviy mashvaratni navbatdan tashqari sessiyaga aylantirib, kun tartibini o‘zi belgilab, o‘zi qaror chiqaradi, tamom. Bajarmay ko‘r-chi! Bugun ham ana shunday oshig‘ich majlis chaqirilib, o‘n chog‘li vakillar jamuljam bo‘ldik. Otam to‘rda yastanib, grafindan sakkiz qirrali stakanga suv quyarkan, baroq qoshlari ostidan sinchiklab kvorum borligiga ishonch hosil qilgach, kun tartibini e’lon qildi:

– Tak, bugungi muhokamaga qo‘yiladigan mavzu bitta: nevaramiz Shukrullojonning fotiha to‘yi munosabati bilan quda tomonga taqdim qilinadigan sovg‘a-salom, xalq tilida aytganda, sarpo-suruq masalasidir. Kimda qanaqa taklif bor? Qarshilar, betaraflar? – Otamiz hali o‘z og‘zidagi gapini tugatmasdan hukm chiqarib qo‘yaqoldi, – xo‘p, demak bir ovozdan qabul qilindi. Endi muhokamaga qo‘yilgan masala yuzasidan asosiy ma’ruzachi – yetakchi maslahatchimiz, hammamiz uchun hurmatli Oyposhsha Berdiyevaga (ism-shariflar etika nuqtayi nazaridan o‘zgartirildi). Ta’kidlab aytamizki, sizga reglament bo‘yicha uch daqiqa vaqt ajratilgan. Lekin hurmatingiz bor, yana uchta uch minut qo‘shib beramiz.

Onamiz salobat bilan to‘rga o‘tib, majlis ahliga (kelinlar bundan mustasno) viqor bilan qosh qoqib minnatdorlik bildirdi. Onamizni yaxshi taniysiz. U kishi o‘tgan asrning 90-yillari miyonasigacha o‘rta maktabda til va adabiyotdan dars berib, keyin bozorlar ma’naviy madadga muhtojligini sezgach, Otchoparda til, hasip-xonim savdosini yo‘lga qo‘yganlar. Tillijag‘li emasmilar, yemakning ta’rifini shundoq boplaganlarki, Hasipxonim degan nomlari shu sharaf bilan bog‘liq. Notiqning protokolda ko‘zda tutilgan rasmiy ma’ruzalarini to‘liq keltirib, shundog‘am vaqti ziq o‘quvchilarning qimmatli umrini o‘g‘irlamoqchimasman. Qisqasi, fotiha dasturxoni tarkibiga kiruvchi o‘n ikki sandiqning peshkashi bul turur: dastlabki olti sandiq nomiga til kelishmaydigan kiyim-kechak, latta-putta, atir-upa, zebi-ziynat, texnik anjomlar va hokazo bilan to‘kis ekan. Qolgan beshi yegulik, ichkilik, meva-cheva, chaq-chuq, qand-qurs deganday (papayya, ajdarho, mangostan, Zimbabve it-uzumi, Gvineya-Bisau xushbo‘y sarimsog‘i, Tanzaniya maymunjoni shinnisi kabilarni, o‘lay agar, tushimda ham ko‘rmagandim) nozli ne’matlar bilan to‘ldirildi. Onamizning ma’ruzalari yakunida muddao o‘n ikkinchi sandiqni qanday to‘ldirib, bo‘lajak qudalarni hang-mang etish-u, obro‘ olish ekanligi ma’lum bo‘ldi. So‘z erkinligi yaxshi narsa-da! Endigina oilamizning faol a’zolari og‘iz juftlagan joyida otamiz xontaxtaga yengil shapatilab, so‘zni o‘ziga o‘zi berib qo‘yaqoldi:

– Avvalo, barchangiz majlisimizda ongli ravishda qatnashib, o‘z nuqtai nazaringiz borligini ifoda etmoqchi bo‘lganingiz o‘ta quvonarli hol. Haqiqat bahslarda tug‘iladi. Shu o‘rinda menda bir taklif bor. Hammamizga ma’lumki, keyingi yillarda kitobxonlikka e’tibor haddan ziyod kuchayib bormoqda. Shuni inobatga olib, so‘nggi sandiqqa noyob kitoblar joylab, ma’rifatparvar xonadon sifatida qudalarga taqdim etsak, ayni muddao bo‘lardi deb hisoblayman (davomli gulduros qarsaklar yangradi). Zero, “O‘lka rivoji” firqasida mardonavor javlon urgan paytlarimizda buyuk safdoshimiz, hamma davr va xalqlarning otashin adibi Valijon Soqiy (taxallus, daf’i balo tarzida o‘zgartirildi) aytardiki: “Kitob o‘qimagan insonning daladagi ho‘kizdan zig‘ircha farqi yo‘qdur”. Demak, ovozga qo‘yaman. Qarshilar, betaraflar? Yo‘q. Rahmat. Endi, Sarvaraxon qizim, chopqillab chiqib, ikkinchi qavatdagi kitoblarni yig‘ib tushing. Iloji boricha taxi buzilmagan, yangiroq bo‘lsin.



Qizimiz Sarvaraxon dik etib turdi-yu: “Dodajonim, mavjud kitoblarning biror nafari varaqlanmagan, ohori to‘kilmagan, yili eski bo‘lsayam, vidi yangi”, deb izohladi va eshikka yo‘naldi. Otamiz vaqtning qadrini yaxshi biladigan odam emasmi, kitob keltirilguncha to‘y tadorigi mavzusini cho‘qilab turdi. Akamizni yaxshi bilasiz, o‘sha surunkali DAN xodimi, mayor, haydovchilar orasida Temir olatayoq nomi bilan otning qashqasidek tanilgan kishi. Otamiz ko‘rsatkich barmog‘i bilan akamizni turg‘izib, tergovga oldi: “Qani, ichki ishlar mayxo‘ri, ashulachi masalasi nima bo‘ldi? Sodir bolamni aytdingmi?” Birdan onamiz bu gapdan olovlanib, to‘lg‘anib ketdilar: “Bo, ordona! Shu otarchiga buncha bino qo‘ygansiz, tovba? Yaltoqlanib otalab, pulingizni shilsa, laqqa tushib siz ham bolamlaganingiz bolamlagan. Buyam davring keldi, surib qol deb, sizniyam denka testga topshirvormasin!” Otamiz buyog‘ini avval o‘ylamagan shekilli, “yo‘g‘-e, unchalikka bormas” dedi-yu, qaytib badiiy qism haqida og‘iz ochmadi. Keltirilgan kitob dastasi tepasidagi birinchi kitobni olib, muqovasini silarkan, chehrasi yorishib xitob qildi: “Mana bu boshqa gap. G‘afur G‘ulom: “Sen yetim emassan”. Onamiz yana keskin gap qo‘shdilar:

– Bo‘l-may-di! Umuman, bo‘lmaydi. Anavi qudalikka nomzodning to‘ng‘ich o‘g‘li alimentshik ekan. Birinchi ro‘zg‘oridan oltita bolasi onasiga qo‘shilib qaynog‘alikka nomzodni orqasidan galalashib quvib yurarmish. Aniq tegib ketadi!

Otamiz bo‘shashibroq kitobni teskari qo‘ydilar. Qo‘lga ilashgan keyingi asar “Bahor qaytmaydi” bo‘ldi. Padarimiz to‘lqinlanib: “O‘tkir okamgila bu romanni yorib qo‘yganlar. Videofilmini ko‘rganman. Alimardon To‘rayev! Lutfulla Sa’dullayev!” deb xitob qildilar. Shu joyga kelganda rafiqamiz bir o‘rnidan turdi-yu, botinolmay joyiga qayta cho‘kdi. Onamiz qoshlarini sakratib, dardingni aytib qol ishorasini berganlaridan so‘ng:

– Uzr-ku, haligi, anaqa... Kelinlikka nomzodimizning opachasi bir tillapurush bilan qozoqqa qochib ketgan, deyishdi. Oti ham anaqa... Bahoroy ekan. “Bahor qaytmaydi”, desa g‘alati chiqmiydimi?

Otamiz peshonasini uqalab, u kitobni ham teskari taxladi.

– Xo‘p, mayli. Mana, Dostoyevskiy! “Jinoyat va jazo”. Rasmlariyam tiniq ekan. O‘ziyam sandiqning yarmini egallaydi.

Shunda mayor akamiz sakrab o‘rnidan turdi. Qizishib, qo‘lini siltab, “ashyoviy dalil” keltirgan bo‘ldi:

– O‘rtoqlar, davlatni ishi o‘yinchoqmi sizlarga? Buyoqda kelinlikka nomzodning o‘rtancha pochchasi Shayxalida uyushgan jinoyatchilar qatorida o‘tiribdi. Bu kitob ochiqdan-ochiq sha’ma bo‘lib qoladi-yu!

– Mana bunisi-chi? Buyam o‘zimizni G‘apir akaniki ekan. “Mening o‘g‘rigina bolam”...

– O‘sha ariston ukaxonimiz aynan gruppavoy o‘g‘rilik uchun kesilib ketgan. O‘z qulog‘im bilan ishonchli manbalardan eshitdim.

Otamizning hafsalasi qaytib, eshitilar-eshitilmas: “Har banda o‘z qulog‘i bilan eshitadi-da”, deb qo‘ydi. Erkin Vohidovning “Istanbul fojiasi” kitobi ham Turkiyada yashayotgan qudag‘aylarning taqdiri bilan uyqashligi sabab chetga surildi. Onamiz kitob dastasiga bo‘yin cho‘zib, bo‘g‘inlab o‘qidilar: “Qo-ra-ko‘z Majnun”. Sa-id Ah-mad”. Shu topgacha tumtaygancha miq etmay o‘tirgan kuyovlikka nomzod Shukrullotoyning ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi.

– I-ya, buvijonginam, sovchilikka borganda kelinlikka nomzodning ko‘zigayam bir qarab qo‘ymagan ekansiz-da! Ko‘zlari poyma-poyku! Bu bilan kuyovto‘raning ko‘zlari qanaqa-yu, kelinposhshaniki anaqaroq degan gap chiqib qomiydimi?

Otamiz ko‘pni ko‘rgan arbob sifatida grafinga stakanni to‘qishtirib, majlis ahlini tinchlantirarkan, yumshoqroq ohangga o‘tdi: “Mana... Bolalar uchun ham kitob bor ekan. Bu beozor mavzuda e’tiroz chiqmasa kerak? Xo‘p, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi”...

Shunda kuyovto‘ra chayon chaqqanday irg‘ib o‘rnidan turdi-yu, bir narsalar deb g‘udranib, xonadan o‘qday otilib chiqib ketdi.

– Nima bo‘ldi, – deb so‘radi yoqa tutamlab onamiz.

Qizimizning aytishicha, uchrashuvga sherik bo‘lib chiqqanda ko‘rganmish, kelinlikka nomzodning bo‘yi kuyovlikka nomzoddan ikki qarichcha uzunroq emish. Hatto instagramdagi do‘stlari ham “Layli, laylak” deb masxara qilisharkan. O‘sha kuni ham kuyov novcharoq ko‘rinay deb oyoq uchida, kelin mutanosib bo‘lish uchun bukilibroq suratga tushishgan ekan.

– Xo‘p, – dedi otamiz. – Manavi mumtoz adabiyot namunasi ekan. Menimcha, shu bexitroq. Naqshiyam Abulqosim madrasasini eslatyapti. “Habib-us siyar”...

Birdan peshonasi tirishib, kitobni chetga surarkan, norozi g‘udranib, xulosa yasadi: “Bo‘lmaydi, qudalikka nomzodning ismi Habibjonmidi? Keyin o‘tgan juma urologiya markazida ko‘rganday bo‘luvdim. Ta-ak, bunisi... “Farhod va Shirin” ekan”. Onamiz dadamizga yalt etib yuzlandi:

– Adasi, sizni otingizga quda xolaning ismi oshiq-moshiq bo‘p qolyapti-yu. Qarigan chog‘ingizda elga kulgi bo‘lib yurmang tag‘in.

Taxlamning oxiridagi asar “Ot kishnagan oqshom” bo‘lib chiqdi. Mayor akamiz kamarini to‘g‘rilab, otamizning yoniga shaxdam qadamlar bilan chiqib, tantanavor e’lon qildi:

– O‘rtoq oilamiz a’zolari! Mana shu kitob ham mash’um bir jinoyatga ishora qilyapti. Yigirma yil burun ko‘cha mafiyasi quturgan payti qudalikka nomzod amakivachchalar Bo‘stonliq tarafdan bir uyur ot o‘g‘irlab, rosa surdi-surdi bo‘lgan ekan. Hurmatli padarimizga ming rahmat, agar kitob taqdim etish g‘oyasi olg‘a surilmaganda biz guvoh bo‘lgan kirdikorlar fosh bo‘lmas edi. Men issig‘ida etagimizni yopib, ko‘zda tutilgan to‘y marosimini bekor qilishga ovoz berishingizni so‘rayman.

Rad qilib bo‘lmas dalillar oldida ojiz qolgan otamiz o‘z ra’yiga ilk bor qarshi chiqib, (kelinlikka nomzodni u kishi tanlab, himoyasida qat’iy oyoq tirab turib olganidan xabaringiz bor) birinchi bo‘lib behol qo‘l ko‘tarishga majbur bo‘ldilar. Bir ovozdan to‘y buzildi.

Aziz o‘quvchi, shu tariqa adabiyot otamizdan kuchli keldi. Muqarrar ko‘ngilsizlikdan oilamizni asrab qoldi. Sizga ham turli janrdagi turfa kitoblarni ko‘proq o‘qishni tavsiya qilamiz.

Domla TUROB

Husan Sodiqov chizgan rasm.

TABASSUM

QIRG‘IZONNING QARILARI



Qirg‘izonning qarilari
Qarsillatib qand yeydi.
Kim ularni sodda ko‘rsa,
Adashadi – pand yeydi.

Qirg‘izonning qarilari
Aldash nima – bilmaydi.
Shuning uchun saksonni ham
Nazar-pisand qilmaydi.

Qirg‘izonning qarilari
Okeanni ko‘rmagan.
“Boshqa yerda hayot – zo‘rmi?” –
Deb birovdan so‘rmagan.

Qirg‘izonning qarilari
Qadrlaydi tishlog‘in.
Ariqda suv oqib turgan
Jannat bilar qishlog‘in.

Qirg‘izonning qarilari
Turib olar to bomdod.
Xuftondan so‘ng yotib olar,
Tok ham bo‘lar iqtisod.

Qirg‘izonning qarilari
Bozoriy non yemaydi.
Tomorqada ter to‘kar-u,
“Davlat boqsin!” – demaydi.

Sultonmurod OLIM,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

E’LON

Yurtimizda ijod qilayotgan xonanda, kompozitor va bastakorlar diqqatiga!



Madaniyat vazirligi hamda “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi barchamiz uchun eng ulug‘ va eng aziz bayram – yurtimiz Mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan qo‘shiqlar tanlovini e’lon qiladi.

Tanlovda havaskor va professional xonandalar, shoirlar, kompozitor hamda bastakorlar Vatan, istiqlol, tinchlik va farovonlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat, millatlararo do‘stlik va hamjihatlik, o‘zaro mehr-oqibat kabi yuksak insoniy tuyg‘ular tarannum etilgan yangi qo‘shiqlari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovda qatnashish istagida bo‘lgan ijodkorlar o‘z qo‘shiqlarini “O‘zbekkonsert” davlat muassasasining @mustaqillik2024 telegram manziliga yo‘llashlari mumkin.

G‘olib deb topilgan xonandalar Mustaqillik bayrami munosabati bilan o‘tkaziladigan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi va quyidagi miqdorda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

1-o‘rin uchun (bitta) – 50 mln. so‘m.
2-o‘rin uchun (bitta) – 40 mln. so‘m.
3-o‘rin uchun (bitta) – 30 mln. so‘m.

Qadrli yurtdoshlar! Vatan tuyg‘usi ijodkor uchun chinakam ilhom manbaidir. Shunday ekan, ushbu imkoniyatdan foydalanib, o‘z iqtidoringizni namoyish etishga shoshiling.

Ijodiy ishlar 2024-yil 20-iyulgacha qabul qilinadi.

Tanlov g‘oliblari 2024-yil 1-avgust kuni e’lon qilinadi.

Murojaat uchun telefon: +99871 234-24-28

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Navbatchi muharrir:
Muyassar Ibrohimova

Sahifalovchi:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Kirill yozuvidagi adadi – 6291
Lotin yozuvidagi adadi – 11962
Media kuzatuvchilar – 9643
Buyurtma: G – 540.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:10
Sotuvda narxi erkin.